



Nazirov Baxtiyor Safarovich,  
Bozorov Quvonchbek Dilmurod o'g'li,  
Toshqobilov Umid Sharafiddinovich

**ABURAZZOQ SAMARQANDIYNING  
“MATLAI SADAYN VA MAJMA UL  
BAHRAYN” ASARIDA  
TARIXIY SHAXSLAR TALQINI**



Kitob quyidagi ko'rsatilgan  
muddatda topshirilishi shart

Oldingi foydalanishlar  
miqdori

Nazirov Baxtiyor Safarovich, Bozorov Quvonchbek Dilmurod o'g'li,  
Toshqobilov Umid Sharafiddinovich

**ABURAZZOQ SAMARQANDIYNING  
“MATLAI SADAYN VA MAJMA UL BAHRAYN”  
ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI**

(*risola*)

Toshkent  
“Lesson press”  
2022

Nazirov B. S., Bozorov Q.D, Toshqobilov U.Sh.  
Aburazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asarida  
tarixiy shaxslar talqini. Risola – "Lesson press" nashriyoti. – Toshkent: 2022. –  
56 bet.

*Ushbu risolada Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmua ul bahrayn" asarini tarixiy manba sifatidagi ahamiyati hamda asar muallifining shaxsi va ilmiy faoliyati, asarning yaratilishi tarixi va voqealar bayoni yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur risolada "Matlai sa'dayn va majmua ul bahrayn" asarida keltirib o'tilgan ayrim tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni o'sha davrning boshqa tarixiy manbalariga tayangan holda talqin qilib berilgan.*

*В данной брошюре раскрывается значение труда Абуарзока Самарканди «Матлай Садайн ва Маджмуа уль Бахрейн» как исторического источника, а также личность и научная деятельность автора произведения, история создания произведения и повествование о событиях было выделено. Также в данной брошюре сведения о некоторых исторических личностях, упомянутых в произведении «Матлай Садайн ва Маджмуа уль Бахрейн», интерпретируются на основе других исторических источников того времени.*

*In this brochure, the significance of Abdurazzoq Samarqandi's work "Matlai Sa'dayn va Majmua ul Bahrain" as a historical source, as well as the personality and scientific activities of the author of the work, the history of the creation of the work and the narrative of the events, have been highlighted. Also, in this brochure, the information about some historical figures mentioned in the work "Matlai Sa'dayn va Majmua ul Bahrain" is interpreted based on other historical sources of that time.*

**Taqrizchilar:** *t.f.d. S.N.Tursunov – Termiz Davlat universiteti professori*

*t.f.f.d. (PhD) D.T.Yaqubova – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi.*

Ushbu risola Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy Kenashining 2022-yil 30 \_\_ - iyundagi 11 \_\_sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8544-9-7

© "Lesson press" nashriyoti, 2022

## KIRISH

O'zbek davlatchilik tarrafiyotida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar saltanati o'ziga xos alohida o'rin tutadi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning 1995-yil noyabr oyidagi Xalq Deputatlari viloyat kengashi sessiyasida ta'kidlaganidek "Ulug' Amir Temur davlatchiligi Temuriylarning o'ziga xos siyosati va boshqaruvchilik usuli adolatli jamiyat barpo etish yo'lidagi say harakatlari bugungi davlatchiligimizni boyitishda muhim ahamiyatga ega..." Darhaqiqat, aynan mana shu davrga kelib davlatchiligimiz o'z rivoji yo'lida muhim bosqichiga qadam qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Ma'lumki, bugungi O'zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg'onish davriga – Birinchi (ma'rifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik bo'lgan. Bu – jahon ilm-fanida o'z isbotini topgan va tan olingan tarixiy haqiqatdir". Aynan yurtimizda Ikkinchi Renessansni yuzaga kelishida Amir Temur, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek singari hukmdorlarning olib borgan adolatli, xalqparvar siyosatining o'rni va hissasi nihoyatda kattadir.

Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinib, o'zaro ichki nizolarga barham berilishi natijasida mamlakatda ilm-fan, madaniyat, san'atning taraqqiy etishiga shart-sharoit yaratildi.

Bugungi kunga kelib sharqdagi yirik madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan va barpo etilganligiga 2750 yil to'lganligi nishonlangan Samarqand sharqning ham madaniy taraqqiyoti jarayonida XV arning birinchi yarmi eng yorqin davrlardan hisoblanadi. Sahifalarida ulug' mutafakkir olim Mirzo Ulug'bek va uning ma'rifat jabhalaridagi safdoshlari nomini, buyuk qurilishlar poydevori bo'lishi moddiy boyliklarini yaratgan xalqlar nomini saqlab kelayotgan ushbu yuksalish davri tasodifiy bir hol bo'lmay, o'ziga xos bir tarixiy sharoitda yuzaga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muhitning samarasi edi.

Bu davrda yashab ijod etgan bir qator tarixnavis olimlar asarlarida xalqning turmish tarzi, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hayotini keng tasvirlab bergan.

Bundan tashqari mana shu tarixiy manbalarda mualliflar bilan zamondosh yashagan temuriy hukmdorlar, mutafakkir olimlar va boshqa ko'plab tarixiy shaxslarning hayoti batafsil yoritib berilgan.

Bugungi zamonaviy tarix fanida Amir Temurning vafotidan soʻng parchalanib ketgan saltanatini oʻzining tadbirkorligi, dono siyosati bilan qayta tiklashga muvaffaq boʻlgan Temuriy hukmdorlarning shaxsi va faoliyati yetarli darajada oʻrganilmagan. XV asrda Temuriy hukmdorlar tomonidan qoʻshni davlatlarga yuborilgan hamda bu davlatlardan temuriylar saltanatiga tashrif buyurgan elchilarning faoliyati, tarixi ham bugungi kun tarix fani oldida turgan kengroq oʻrganilishi kerak boʻlgan muammolardan hisoblanadi.

XV asrning mashhur tarixnavis olimi Aburazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asaridagi voqealar bayoni katta davrni qamrab olganligi sababli ushbu risolada asarning ikkinchi qismida keltirilgan voqealar bayoniga asoslaniladi. Shu tufayli "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" ning ikkinchi qismida voqealari yoritilgan milodiy 1405-1470-yillar mazkur risolaning davriy chegarasi qilib belgilanadi.

Biz mazkur mavzuning oʻrganilish darajasini davriy nuqtayi-nazardan **3 yoʻnalishga** boʻlib tahlil qilishimiz mumkin:

**Birinchi yoʻnalishga** sovet davrida qilingan tadqiqot ishlarini kiritishimiz mumkin. Bu davrda tarixchi olim A.Oʻrinboevning olib borgan tadqiqot ishlari alohida eʼtiborga molik. A.Oʻrinboev "Matlai sadayn va majma ul bahrayn" asarini oʻzbek tiliga tarjima qilib, kiritish soʻz va izohlar bilan 1969-yilda nashr ettirdi. Bundan tashqari tarixchi olimning mazkur tarixiy asari asosida yozilgan bir qator adabiyotlari mavjud.<sup>2</sup> Tarixchi olimlarimizdan yana biri M.Ermatov<sup>3</sup> Oʻrta Osiyoning xalqlari bilan Hindiston xalqlari oʻrtasidagi doʻstona aloqalari tarixini yoritishda bevosita "Matlai sadayn va majma ul bahrayn"ga murojaat qilgan.

**Ikkinchi yoʻnalishdagi** adabiyotlarga mustaqillik davrida yozilgan adabiyotlarni kiritishimiz mumkin. Ular jumlasiga B.Ahmedov, O.Boʻriyev, S.Inoyatov, H.Boʻboev, A.Ismoil, U.Uvatov, T.Karimov, Oqilxon Odilov, Ahmad Ashraf, Turgʻun Fayziyev<sup>4</sup> va boshqalarning asarlarini kiritishimiz mumkin.

**Uchinchi yoʻnalishga** xorijdagi olib borilgan tadqiqot ishlari kiradi. Xorijda qilingan tadqiqot ishlaridan fransuz sharqshunosi Katmerning

1843-yili Parijda nashr ettirilgan adabiyotini<sup>5</sup> alohida ajratib koʻrsatishimiz mumkin. Bundan tashqari Pokistonlik mashhur olim Muhammad Shafe "Matlai saʼdayn" asari ustida bir qator tadqiqot ishlarini<sup>6</sup> olib borgan.

**Mavzuning manbai asosi.** Mazkur risolaning mavzusini yoritishda bir qator tarixiy manbalarga asoslanildi. Ulardan eng asosiysi Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn" asaridir.<sup>7</sup> Ushbu asar oʻzida jamlagan tarixiy maʼlumotlarning nodirliigi va ishonchi bilan Temuriylar davrida va undan keyin bitilgan asarlarga nisbatan oʻziga xos ravishda qimmatlidir. Asar Abdurazzoq Samarqandiyning 24 yoshida Hirotdagi Temuriylar saroyiga xizmatga qabul qilinishi va 50 yoshga chiqquniga qadar (26 yil davomida) avval Shohrux, soʻng uning oʻrniga taxtga chiqqan boshqa Temuriylar saroyida davlat ishlari bilan mashgʻul boʻlishi, keyinchalik bu xonadonning hukmronlik davrini haqqoniy tarixini yaratish uchun zamin tayyorlagan.

XV asrning birinchi yarmida Temuriylar davlati bilan Rum (Vizantiya), Misr, Hindiston, Xitoy mamlakatlari orasida diplomatik aloqalarni yoʻlga qoʻyilganligi va bu aloqalarni amalga oshirishda Abdurazzoq Samarqandiyning faol ishtirok etganligi "Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn" da keltirilgan elchilarning faoliyati haqidagi maʼlumotlarning naqadar ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Har bitta mavzuning, ishning maqsad va vazifalari boʻlgani kabi ushbu risola orqali Abdurazzoq Samarqandiyning Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn" asarida keltirib oʻtilgan ayrim tarixiy shaxslar haqidagi maʼlumotlarni oʻsha davrning boshqa tarixiy manbalariga tayangan holda talqin qilib berishdan iborat.

Ushbu maqsad asosida quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Abdurazzoq Samarqandiyning shaxsi va faoliyatini yoritib berish;
2. "Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn" asrining tarixiy manba sifatidagi axamiyatini ochib berish;
3. Asarda keltirilib oʻtilgan temuriy hukmdorlarning shaxsi va faoliyatiga oid maʼlumotlarni talqin qilish;
4. XV asrning birinchi yarmida temuriylar saltanati bilan qoʻshni boʻlgan davlatlar oʻrtasidagi aloqalarda faol ishtirok etgan elchilar faoliyatini "Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn" da keltirilgan maʼlumotlar asosida yoritib berish.

<sup>5</sup> Quatremere M. Notice de l'ouvrage person qui a pour titre marla assadein ou - nadjma- al- bahrein at qui countient e' historique des deux sultans Schah-rokh et Abour-Said. "Notices at extraits", T. XIV, pt. 1, paris, 1843.

<sup>6</sup> Shafe Muhammad. Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn. tanqidiy matn -Lohur, 1933, 1941, 1944, 1949

<sup>7</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai saʼdayn va majma ul bahrayn. (forsiydan tarjima. kiritish soʻz va izohli. lugʻatlar Oʻrinboev A)- T. -, 1969.

Mazkur risolada "Matlai sa'dayn va majmua ul bahrayn" da keltirib o'tilgan m'lumotlarni o'sha davrning boshqa tarixiy manbalari bilan taqqoslagan holda o'rganishga katta e'tibor berildi. Asardagi ayrim shaxs va voqealar haqidagi xususiy so'zarga kelganda esa, ularni barcha hollarda ham obyektiv deb hisoblanmay, tanqidiy qarashga va muallifning o'z fikri deb baxslashishga to'g'ri keldi.

Bugungi kungacha olib borilgan tadqiqot ishlarida "Matlai sadayn" da keltirib o'tilgan ayrim ma'lumotlarigagina murojaat qilinganligi hisobga oladigan bo'lsak mazkur risolada birinchi marotaba "Matlai sadayn" asarida keltilgan tarixiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'la qamrovli shaklda yoritib berishga harakat qilinganligi bilan katta ahamiyat kasb etadi.

## I BOB. "MATLAI SA'DAYN VA MAJMUUA UL BAHRAYN" ASARINING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI



### 1.1 Asar muallifining shaxsi va ilmiy faoliyati.

Abdurazzoq Samarqandiy hijriy yil hisobi bilan 12 shabbon 816 (milodiy 7 noyabr, 1413 y) yili bu vaqtlar temuriylar davlatining markaziy shaharlaridan biri bo'lgan Hirot shahrida tug'ilgan<sup>8</sup> va 887 jumad ul-oxir oyida (iyul-avgust, 1482) shu shaharda vafot etgan<sup>9</sup>.

Uning to'liq ismi Kamoluddin Abdurazzoq, otasining ismi Jaloluddin Is'hoq Samarqandiydur. Abdurazzoq Hirotida tug'ilganiga qaramay "Samarqandiy" degan nisba bilan shuhrat topganligiga sabab, otasi Jaloluddin Is'hoqning asli samarqandlik bo'lganligi va yana, taxmin qilish mumkinki, bo'lajak tarixnavisning o'zi ham bir necha vaqtlar Samarqand shahrida turganligidir<sup>10</sup>.

Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida "diniy ilmlarni tahsil qilish asnosida"<sup>11</sup>, degan ayrim ishoralardan boshqa o'zining yoshlik, ta'lim tarbiya olishi bilan bog'liq yillari to'g'risida aniq bir ma'lumot keltirmagan. Lekin shunday bo'lsa ham, u asosan Hirot madrasalarida tahsil ko'rgan, degan xulosaga kelish mumkun. Chunki, "Matlai sadayn" da keltirilgan Hirotidagi madaniy qurulishlarga doir ma'lumotlar bu shaharning XV asrning birinchi choragidan boshlab Samarqand bilan bir qatorda

<sup>8</sup> Matlai sadayn: Lohur, 1933, 258-bet. Abdurazzoq Samarqandiyning tug'ilgan yili uning o'zi tomonidan 816 (1413) yil voqealari orasida ko'rsatgan.

<sup>9</sup> Mirzond "Ravzat us safo" Bombay(Mumbay), 1281 (1864-1865), VIII jild, 7-bet. Xondamir "Habib us-siyar", Bombay(Morabay), 1273 (1857), III jild, 3-qism, 335-bet.

<sup>10</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1933, 421- bet

<sup>11</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 705- bet

temuriylar davlatidagi madaniy markazlaridan biriga aylanganligini ko'rsatadi<sup>12</sup>.

Temuriy hukmdorlardan biri bo'lgan Shohrux Mirzo saroyida ma'lum bir mavqega ega bo'lgan otasi va o'z davrining taniqli ziyolilari hamda adabiyot ahillaridan bo'lgan akalari ko'magida<sup>13</sup> Abdurazzoq tavsiir, hadis, fiqh ilmlarini hamda tarix va adabiyot fanlari bo'yicha o'z zamonasi uchun yetarli ma'lumot egasi bo'lib yetishgan. Tarixnavis olim bilan shaxsan uchrashib suhbatda bo'lgan atqoli adib Alisher Navoiy ham o'zining "Majolis un-nafois" asarida Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur ilmlar bo'yicha yaxshi bilimdon ekanligini tasdiqlaydi<sup>14</sup>. Bundan tashqari tarixnavis o'z asarida juda ko'p uchraydigan so'z o'yinlari, adabiy mubolag'alar, o'xshatishlar orasida shundaylari ham borki, ularni o'qir ekanmiz, Abdurazzoq Samarqandiy XV asrda O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida mavjud bo'lgan geografiya va astranomiya fanlaridan ham umumiy tasavvurga ega ekanligi haqida xulosaga kelish mumkun.

Abdurazzoq Samarqandiy 24 yoshigacha ta'lim tarbiya olish va madrasada o'qish bilan shug'ullangach, 841 (1437-1438) -yili Hirotdagi temuriylar saroyiga xizmatga qabul qilinadi. Bu haqda tarixnavis o'z asarida shunday to'xtaladi. Uning so'zlariga qaraganda, Abdurazzoq Samarqandiy arab tilini o'rganishi yuzasidan olib borgan izlanishlariga yakun sifatida bir risola yozib, unga arab tili mutaxasi Qi'oz Azduddinning arab tili grammatikasiga oid "Risolai Azudiya" nomli asarini sharhlab chiqadi va bu sharhni Shohruxga bag'ishlab, debochada eslatib o'tadi. Risola Shohruxga taqdim qilinarkan, uning debochasini Abdurazzoq Samarqandiyning o'zi o'qib beradi. Shohrux o'sha majlisda Abdurazzoq Samarqandiydan ba'zi masalalarni so'rab imtihondan o'tkazadi va qoniqish hosil qilgach, uni saroy xizmatiga o'tishga buyruq beradi<sup>15</sup>.

Abdurazzoq Samarqandiyning saroyda qanday vazifalarni o'taganiga kelganda, ta'kidlab o'tish joizki, dastavval Abdurazzoq temuriylarning Hirotdagi saroyida bu vaqtlar rivojlangan diniy va dunyoviy ilmlar, shar'iy qonun-qoidalarining ba'zi juziy masalalari bo'yicha maslahatchi sifatida xizmat qilib yurgan.

"Matlai sadayn" da keltirilgan muallifning o'z hayotiga doir ma'lumotlariga qaraganda, dastlab o'zi yaxshi bilgan ilmlarni arzga yetkazib turuvchi mulozim bo'lgan Abdurazzoq Samarqandiy, mazkur

imtihondan keyin temuriy hukmdorlar nazdida ancha e'tibor qozonib, endi davlat ishlarida ham faol qatnasha boshlagan<sup>16</sup>.

"Matlai sadayn" da keltirilgan Abdurazzoqning o'z faoliyati haqidagi ba'zi umumiy ma'lumotlarga asoslanib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Abdurazzoq Shohrux hukmronligi davrida va undan keyin ham ko'proq temuriylar sulolasi hukmdorlarining o'zaro taxt uchun olib borgan kurashiga, ularning tashqi davlatlar bilan olib borgan diplomatik yozishmalariga va elchilik aloqalariga oid ishlar bilan shug'ullangan. Jumadan, 1442-yil Shohrux Abdurazzoq Samarqandiyning Janubiy Hindistondagi port shahar Kalikutga va Vijayanagar davlatiga elchi qilib yuboradi. 1444-yili Hindistondan qaytib kelgach, temuriylar saroyida yana "Mulozimlik" da'vat etgan va ayrim hollarda Shohruxning elchisi sifatida Hirotdan boshqa yerlarga yuborilgan.

Shohrux Mirzo vafot etgach (1447) Abdurazzoq Samarqandiy dastlab Abulqosim Bobur saroyida, so'ngra sulton Abu Said Mirzo saroyida xizmat qiladi.

1458-1459 yillarda Abdurazzoq Samarqandiy Abu Saidning elchisi sifatida Astrobodga safar qiladi. Chunki, shu yili Astrobodni Sulton Husayn Boyqaro bosib olgan va u bilan muzokaralar olib borishni Abu Said Abdurazzoq Samarqandiyga topshirgan edi<sup>17</sup>. Shundan so'ng Abdurazzoq Samarqandiy davlat ishlarida bevosita qatnashishdan voz kechib Hirotdagi Shohruxiya xonaqosiga shayxlik lavozimiga tayinlangan edi<sup>18</sup>.

Abdurazzoqning xonaqohga shayxlik mansabiga ishga o'tishidan maqsadi, avvalo, saroy a'yonlari orqasidagi mavqey uchun doimiy kurashlar va siyosiy notinchiliklar tahlikasidan qutulish va o'ziga osoyishta ijodiy hayot uchun zamin yaratishi bo'lsa, ikkinchidan, xonaqoh va madrasalarning vaqf daromadi hisobiga "Ta'minot tangligi" ni ham bir qadar hal qilib<sup>19</sup>, o'z nomining tarix sahifalarida abadiy qolishiga sabab bo'lgan "Matlai sadayn" asarini yozishga kirishish edi.

Abdurazzoq Samarqandiyning ilmiy faoliyatiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, uning bizgacha yetib kelgan birgina asari "Matlai sadayn" dir. Abdurazzoqqa asrdosh bo'lgan tarixnavis G'iyosiddin Xondamir, garchi uning bir nechta asarlari bo'lganligini eslatib o'tgan bo'lsa ham<sup>20</sup>, ulardan "Matlai sadayn" ninggina nomini atagan. Abdurazzoqning yig'itlik chog'larida yozib, Shohruxga taqdim qilgan arab tili grammatikasiga oid

<sup>16</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 732-733 betlar

<sup>17</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 1198-bet.

<sup>18</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 1270-bet.

<sup>19</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1933, 189-bet. Xondamir O'ZFASHI, qo'lyozma № 2209, 474-b varaqalar.

<sup>20</sup> Xondamir, "Xulosalar al-axbor fi axbori bayoni ahbori axyor", O'ZFASHI, qo'lyozma № 2209, 480 b varaq.


<sup>12</sup> Ushbu ma'lumotlar "Matlai sadayn" ning 2- qismini han-xil mavzularida keltirilgan.

<sup>13</sup> O'rtoyev A., Abdurazzoq Samarqandiy, T, 1965, 10-12 betlar.

<sup>14</sup> Alisher Navoiy, "Majolis un-Nafis", 42-bet

<sup>15</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 705-bet

risolasining sharhi esa bizgacha yetib kelmagan yoki, to'g'rirog'i, uning qo'yozma nusxalari hozirgacha saqlanib qolmagan. Shuning uchun, Abdurazzoq Samarqandiyning ijodiy – tarixnavislik faoliyati to'g'risidagi manba "Matlai sadayn" asarining o'zidir, xolos. Alisher Navoiy, Mirxond va Xondamirlarning u haqida keltirgan ma'lumotlari<sup>21</sup> esa uning yashagan yillari, o'z zamonasining taniqli adiblaridan va tarixnavis olimlaridan biri bo'lganligi haqidagi ma'lumotlardagina iboratdir.



## I.2. Asarning yaratilishi tarixi va voqealar bayoni

Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sadayn va majmua ul-bahrayn" asarini asosan hijriy 872 (1467-1468) – 874 (1469-1470) yillar orasida yozib tamomlagan va 875 (1470) - yil uni yana davom ettirib, shu yilning safar oyida (avgust, 1470) sodir bo'lgan voqealarni ham qo'shib, tugallagan<sup>22</sup>. Biroq bunday tarixiy asar yozish ishtiyogi Abdurazzoq Samarqandiyda mazkur yillardagina paydo bo'lgan emas. Uning so'zlariga qaraganda, u hali yoshlik chog'laridayoq "diniy ilmlarni tahsil qilish asnosida" tarix faniga qiziqqan va kitob yozishni orzu qilib yurgan, "ammo bu parda ostida etib, intizorlik niqobidan hech bir vajah bilan yuzaga chiqqan olmagan"<sup>23</sup>. Bunga sabab, Abdurazzoq Samarqandiy davlat ishlari bilan shug'ullanib yurgan vaqtlarda temuriylar davlatida o'zaro ichki nizolar avj olganligida<sup>24</sup> bo'lgan.

O'rta asr tarixnavisligining ko'pchiligida uchraydigan bu iborani<sup>25</sup> garchi Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan keltirilgan bir sabab – tushuntirishi deb hisoblagan taqdirimizda ham, uning saroy xizmatida ekanligida bunday katta asarni yozishga kirishishi uchun sharoit

bo'lmaganligi, bu shu bilan shug'ullanishga u faqat xonaqohda shayxlik mansabida ekanligidagina muyassar bo'la olganligi muqarrardir. Lekin, Abdurazzoq Samarqandiy davlat xizmatida ekanligida ham qachonlardir o'z orzusini amalga oshirishiga ishongan va ko'p yillar davomida ba'zi tarixiy voqealarni "ayrim varaqlarga" yozib yurgan. Bu haqda u "qorong'u kechalarda mening ham damim qalam edi" degan so'zlarni eslatib o'tgan va shayxlik lavozimida ekanligida bir do'sti yozgalarini jamlashga undaganligini aytib, "har joydagi birov varaq tarqoq yotgan bo'lsa, g'uncha barglaridek terib olib, gul daftaridek bog'ladim va bir guldasta tuzdim-ki, uning isidan (hididan) zamona dimog'i muattar bo'ldi"<sup>26</sup>, deyishi bilan kitobning ayrim qismlarini yozib yurib, so'ng jamlaganiga ishora qilgan.

Asarning nomi "Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi" dan anglashilib turganidek Abdurazzoq Samarqandiy o'z kitobini ikki jildga bo'lib tuzgan. Ikki saodatli yulduz (sadayn) va ikki dengiz (bahrayn) dan murod kimlar va qanday tushunchalar ekanligini muallif keltirib o'tmagan. Shunga ko'ra, tadqiqotchilar tomonidan bu haqda turli fikrlar bayon qilingan<sup>27</sup>. Ulardan xulosa shuki, ikki saodatli yulduzdan murod asarning birinchi va ikkinchi jildlarida nomlari zikr etilgan biri Chingizxon, ikkinchisi Temur avlodlaridan bo'lgan Abu Saidlar (yoki, ulardan ikkinchisi o'rinda "xoqoni said" laqabi bilan mashg'ur bo'lgan Shohrux Mirzo) ikkinchi yarmidagi ikki dengizdan murod esa asarda dastlab Chingizxon avlodidan bo'lgan hukmdorlar haqida gap borib, unga Temurning tarixi ulanib ketishi yoki birinchi jildda Shohruxning taxtiga o'tirishi bilan boshlanishi va bu ikki shaxsning hukmdorlik tarixi bir-birining davomi ekanligini uqdirib o'tishdir.

Bu fikrlarni asar mazmuni bilan taqqoslab ko'rilganida, ularning har biri ham ma'lum asosga ega ekanligi oydinlashadi. Ya'ni, "Matlai sadayn" ning birinchi jildida qisqa tarzda bo'lsa ham Chingizxon avlodidan bo'lgan Eron hukmdori Abu Said (1316-1335) haqida ham gap borib<sup>28</sup>, so'ng uning vafoti yili tug'ulgan (1336) Temur tarixi boshlanadi va umuman, bu jildda 704 (1304) yildan – 807 (1405) - yilgacha O'rta Osiyo, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon, qisman Hindiston va boshqa mamlakatlar tarixiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Tarixiy voqealar bayoni Temurning 17-shabbon 807 (18 feral, 1405)- yili O'trorda vafot etganligi, uning nabirasi Halil

<sup>26</sup> "Matlai sadayn" I jild O'z FASHI qo'lyozma № 17, 4b varaq.

<sup>27</sup> A. Krinsky, "История Персии, ее литературы и церковной реформы" III том № 1914-1917, str. 61

<sup>28</sup> "Matlai sadayn" ning Eron hukmdori Abu Saidga bag'ishlangan mazkur 17 raqamli qo'lyozma 1b-215 varoqlarini O'z FASHI 5373 raqamli yana bir nusxada esa 1b-24 b varoqlarini tashkil etadi.

Sultonning Samarqand taxtiga o'tirganligi va shu orada sodir bo'lgan taxt uchun kurashlar bayoni bilan tugallanadi<sup>29</sup>.

Ikkinchi jildda esa muallif bosh so'zida Temurning avlodlari haqida so'zlamoqchi ekanligini aytib, voqealar bayonini Shohruxning Hirotda taxtga o'tirgan vaqtidan (mart, 1405) boshlaydi. So'ng, u Shohrux vafotidan keyin (1447) hukmronlik qilgan temuriylar: Mirzo Abulqosim Bobur (1452-1457), Abu Said (1451-1469) va boshqa shu orada taxtga o'tirgan, ammo hukmronliklari ko'pga bormagan shahzodalardan so'zlab bo'lgach, Husayn Boyqaroning Hirotda ikkinchi marta 875-yil safar oyida (1470 yil, avgust) taxtga o'tirishi haqidagi ma'lumotlar bilan asarni tugatadi.

Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sadayn" da tarixiy voqealar bayonini yil tartibi bilan joylashtirgan. Asarning bunday tarzda tuzulishi o'rta asr tarixnavisligidan namuna sifatida diqqatga sazovardir. Unda tarixiy voqealar mavzu e'tibori bilan uzluksiz bir butun tarzda yozilmay, yillarga bo'lib yuborilgan. Ya'ni, asarning katta sarlavha ostida o'sha yili sodir bo'lgan voqealar kichik fasl – sarlavhachalar ostida keltirilgan. Bunda, masalan, Movarounnahr tarixiga oid bir necha yil davomida kechgan voqealar Xuroson, Fors, Iroq, Ozorbayjon va boshqa mamlakatlar tarixidan so'zlovchi fasllar bilan bo'linib-bo'linib yozilgan. Zarur bo'lgan hollarda esa muallif o'quvchiga tushunarli bo'lmog'i uchun, biror voqeaning boshlang'ich qismi ilgari yillar kechmishlari orasida so'zlab o'tilganligiga ishora qilib borgan.

"Matlai sadayn" ning yozilishiga xos xususiyatlardan yana biri asardagi tarixiy mazmunning ajoyib bir mahorat bilan badiiy shaklga o'rilib qo'iyali nasr(saj) uslubida bayon qilinganligidir.

Biroq, muhimi "Matlai sadayn" ning adabiy-badiiy mahorati ustida emas, balki tarixiy jihatdan qanchalik ishonarli manba ekanligi va Abdurazzoq Samarqandiy tarixiy voqealarni qay tarzda yoritganligi haqida fikr yuritishdir.

Bu borada avvalo shunday aytib o'tish kerakki, yuqorida qayd qilinganidek, "Matlai sadayn" da 704 (1304) - 875 (1469-1470) yillar orasida jami 171(166) yil mobaynida sodir bo'lgan voqealar<sup>30</sup> bayon qilingan. Abdurazzoq Samarqandiy esa 1413 yil tug'ulib, 1482-yil vafot etgan. Demak, u o'zi yashagan davrlardan oldingi yillarda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni yoritishda boshqa manbalarga asoslangan. Chunonchi,

asarning ikkinchi jildining birinchi qismi 1405-1429 yillar voqealaridan iborat bo'lib, uning deyarli hammasi Abdurazzoqning boshqa manbalarga asoslanib yozgan qismini tashkil etadi. Bu manbalardan eng asosiysi XV asrning birinchi choragida Hirotda tarixiy va geograf Hofiz Abro'ning "Zubdat ut-shug'ullangan mashhur tarixnavis va geograf Hofiz Abro'ning "Zubdat ut-tavorixi Boysug'iriy" nomli kitobidir. "Matlai sadayn" ning Lohur nashrida keltirilgan izahotlarda Muhammad Shafe tomonidan ko'rsatilgan ikki asar matni orasidagi farqlarga qaraganda, Abdurazzoq Samarqandiy 1405-1427 yillar voqealarini yoritir ekan, aksar hollarda "Zubdat ut-tavorixi Boysug'iriy" ga suyangan va, hatto, aytish mumkuni, Hofiz Abro'ning tarixiy ma'lumotlarini butunlay qamrab, unga yengil tahrir yoki ba'zi qisqartirishlar kiritishi bilangina cheklangan; faqat ayrim hollardagina boshqa manbalar yoki o'zi bilgan voqealaridan qo'shimchalar keltirgan.

Biroq, shu narsa e'tiborga sazovordirki, Abdurazzoq Samarqandiy bu ishni Hofiz Abro'ning mehnatini o'zlashtirib olish maqsadida emas, balki temuriylar davri tarixini, o'zi yashagan zamongacha to'la aks ettiruvchi asar yaratish maqsadida amalga oshirgan. Shuning uchun ham, u 830 (1427) yil voqealarini yoritir ekan, Hofiz Abro'dan keltirilgan ma'lumotlar tugaganligini ochiqdan-ochiq eslatib: "Hofiz Abro'ning yozgani ... "Zubdat ut-tavorixi Boysug'iriy" shu yerda tugadi<sup>31</sup>, deyishi bilan bu asardan to'la foydalanilganligini e'tirof etgan.

Abdurazzoq Samarqandirning Hofiz Abro' asaridan foydalanilganligini muallifning zamondoshlari ham "Matlai sadayn" yozib tugallangan vaqtlardayoq ko'rsatib o'tgan.

Masalan, Abdurazzoq Samarqandiyning zamondoshi mavloni Abdulvose an-Nizomiy "Matlai sadayn majmua ul-bahrayn"(Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilib joyi) dagi tarixiy ma'lumotlarni ishonariligi isbotlamoqchi bo'lar ekan, "...voqealardan ba'zisi, Hofiz Abro' o'z ko'zi bilan ko'rgan va haqiqat ekanligini aniqlagandan so'nggina, tahrir tuguniga bog'langan edi", - deb yozadi<sup>32</sup>.

Darhaqiqat, Abdurazzoq Samarqandiyning o'ziga zamondoosh bo'lmagan voqealarni boshqa mualliflar asarlaridan olib keltirishni lozim ko'rgan ekan, uning Hofiz Abroga tayanganligiga sabab "Zubdat ut-tavorixi Boysug'iriy"ning o'z davri tarixiy voqealaridan habardor, bilimli kishi tomonidan yozilgan ishonchli manba sifatida shuhrat topganligidir.

<sup>29</sup> "Matlai sadayn" ning O'z Fashl da soqilanyotgan 17-raqamli qo'lyozmada, 206 a-121 b varaqalar, 5373 raqamli nusxada -250 b-259 a.

<sup>30</sup> Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sadayn va majmua ul bahrayn", T.-1969, A. O'rino'boev tarjimasida, 21-bet.

<sup>31</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1933, 576-577 betlar  
<sup>32</sup> "Matlai sadayn", Lohur, 1949, 1440- bet.

**II BOB. "MATLAI SADAYN VA MAJMA UL BAHRAYN" ASARI  
TARIXIY SHAXSLARNING HAYOTINI YORITIB BERUVCHI  
ASOSIY MANBALARDAN BIRI SIFATIDA**



***II.1. Shohrux va uning o'g'li Mirzo Ulug'bek ma'rifatparvar shaxs va  
adolatli hukmdorlar timsolida.***

Temuriylar davri tarixini o'rganar ekanmiz, Amir Temurning vafotidan so'ng parchalanib ketgan saltanatni o'zining tadbirkorligi, dono siyosati bilan qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan shaxs Shohrux Mirzo ekanligini ko'ramiz.

Shohrux Temurning to'rtinchi, kenja o'g'li bo'lib, 779-yil 14-robbiul soniy (1377-yil 20-avgust) payshanba kuni tug'ulgan<sup>33</sup>. O'sha davrning mashhur tarixnavislari Abdurazzoq Samarqandiy hamda Xondamirlarning bergan ma'lumotlariga qaraganda, uning onasi Tog'oy turkon og'a Sohbiqironning xos kanizlaridan bo'lgan<sup>34</sup>. Keyinchalik, Amir Temur uni o'z nikohiga olgan.

Ayrim rivoyatlarga ko'ra, bu hushxabarni Amir Temurga u shatranj o'yini bilan mashg'ul bo'lib, qo'lini "rux" donasiga boqqanda eshitgan va shu sababli miyig'ida kulib, ismi "Shohrux" bo'lsin degan ekan. "Matlai sadayn" da keltirib o'tilgan ushu ma'lumotni Ibn Arabshoh (1389-1450) ham o'z asarida<sup>35</sup> keltirib o'tadi. Ibn Arabshohning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur shatranj o'yini bilan band bo'lgan vaqtda uning huzuriga ikki chopar kelib, biri yangi mehmon (Shohrux) dunyoga kelganligini,

<sup>33</sup> "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn", Lohur, 1949 y.

<sup>34</sup> "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn", Lohur, 1949 y. Xondamir "Xabib us-siyar" muxarrir B.Zohidov. Toshkent, 1941.

<sup>35</sup> Ibn Arabshoh. Ajeyib al-maqdur fi tarixi Tavmur. Ubaydulla Uvratov tarjimai. I kitob. T. 1992.

ikkinchisi, Amir Temurning farmoniga ko'ra Sirdaryoning o'ng sohilida qurilayotgan shahar bitganligi haqida xushxabarni yetkazadilar. Amir Temur har ikkalasini ham shu ism bilan atashni buyuradi.

Shohrux mirzo 20 yoshgacha otasi Amir Temur yonida bo'lib, uning harbiy yurishlarida, jumladan, Shoh Mansur Muzaffariy bilan bo'lgan muharabada (jangda) faol qatnashadi.

"Matlai sadayn" da keltirib o'tilgan ma'lumotlarga qaraganda, 1397 yil Amir Temur kenja o'g'li Shohrux Mirzoga Xuroson, Mozandaron va Seistonni suyuq'ol qiladi. Ushbu ma'lumotni Nizommiddin Shomiy ham o'z asarida<sup>36</sup> keltirib o'tgan. Shunday qilib, Shohrux Mirzo 1397 yildan e'tibran Xuroson, Mozandaron va Seistonda Amir Temurning noibi sifatida o'z faoliyatini boshlaydi.

Abdurazzoq Samarqandiyning ta'kidlashicha, 1399-yil iyul oyida Amir Temur farmoniga ko'ra, Hirot shahrida Shohrux Mirzo uchun Bog'i Shohrux saroyi qurila boshlanadi va bu qurilishga Milkat tovachi mas'ul qilib belgilanadi<sup>37</sup>.

Shuningdek, Amir Temur 1401 yilda Xo'ja Shamsiddin Muhammad ibn Xo'ja Ali ibn Xo'ja Nizom ad-Din Yahyo Simnoniyni Xurosonga Shohrux Mirzo huzuriga vazir qilib yuboradi<sup>38</sup>.

Amir Temur vafotidan keyin Shohrux Mirzo ota taxtiga davogar bo'lib, jiyani Xalil Sultonga qarshi kurash boshlash uchun o'ziga ittifoqchilar qidira boshlaydi. Unga ishonchli va mard ittifoqchi Pir Muhammad edi.

Shohrux Mirzoning Temuriylar saltanati taxtiga o'tirgan yili to'g'risida "Matlai sadayn" da quydagicha keltirib o'tiladi: "Davlat va dinning qutbi, Sohbiqiron Amir Temur ko'ragonning haqiqiy vorisi va olamni zabt etgan u shahanshoxning ko'zi nuri, xalifalk va sultonlikning, dunyo va diniy ko'makchisi bo'lmish hazrati Xoqoni Said Mirzo Shohrux Bahodir jahon saltanati taxtini o'z humoyunsifat zotning shulasiga musharraf qildi va uning adolat oftobi jahon ahli boshiga saodat tushirdi...". Bu saodat nishonli taxtiga chiqish voqeasi 807-yil muborak ramazon oyida (3-mart – 1-aprel, 1405-yil) saltanat poytaxti Hirotga xushbaxtlik va yaxshilik bilan voqe bo'ldi<sup>39</sup>.

Shohrux Mirzo Hirot taxtiga o'ttirgandan so'ng asosiy e'tiborini Xalil Sulton bilan bo'ladigan urushga qaratdi. Bu ishda uning asosiy ittifoqchisi bo'lgan valiahd Pir Muhammad Pir Ali Toz tomonidan hijriy 809-yil 14-

<sup>36</sup> "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn", Lohur, 1933. – 172-bet.

<sup>37</sup> "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn", Lohur, 1933. – 172-bet.

<sup>38</sup> Feyziyev, X. Shohrux Mirzo. // Moziydan sado. 4-sen. 2004. – 17-bet.

<sup>39</sup> Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn", A.O'rinboev tarjimai, 1969, 60-bet.

ramazonda (milodiy 1407-yil 22-fevralda) xoinlarcha o'ldirildi. Bu haqda "Matlai sadayn" da quyidagicha keltiriladi: "... Mirzo Pir Muhammad ramazon shulasidan o'z boshini xilvatgohida inobat shomini o'qib nadomat yoshlarini qatralari bilan shamdek quyib turgan bir vaqtda, ramazonning o'n to'rtinchi kuni (22-fevral, 1407-yil) beboqu nopok Pir Ali Toz u benuqson qalbli shahzodaning saropardasi ichiga kirib, unga va uning bir nechta kishilariga shahidlik sharbatini ichirdi"<sup>40</sup>.

Pir Muhammad o'limidan so'ng, Shohrux Mirzo yakka o'zi Xalil Sultonga qarshi kurash olib boradi. Shohrux Mirzo kurashni dastlab Balxga yurish qilishdan (1407-yil 8-iyun), Pir Ali Tozni yo'q qilishdan boshlaydi<sup>41</sup>. Buni eshitgan Pir Ali Toz Balxni tashlab qochadi. Shundan so'ng, Shohrux Mirzo hijriy 809-yil jumad al-oxirning o'n sakkizinchisida (20-oktabr, 1407-yil) Mozandarinni zabt etib, Astrobod qal'asini mustahkamlaydi va uning qutvolligiga Abu Laysni tayinlaydi.

"Matlai sadayn" da keltirilishicha, hijriy 810-yil zul qaddaning oxirida (27-aprel, 1408-yil) amir Johonmulk boshchiligida bir guruh saroy xizmatchilari Shohruxga suiqasd uyushtirishga ahd qiladilar. Lekin, ular o'z maqsadiga yetisha olmadilar. Shohrux Mirzo buni sezib qolib, barcha xoinlarni qatl ettiradi<sup>42</sup>.

1409-yil Shohrux Mirzo Amir Temur saltanatining poytaxti bo'lgan Samarqandni egallashga kirishadi. Bu haqda "Matlai sadayn" da quyidagicha keltirilgan: "811-yil zul xijja oyining yettinchisida (13-may, 1409-yil) dor us-saltanat Samarqand Hoqoni Said (Shohrux Mirzo) ning qarorgohi bo'ld"<sup>43</sup>. Shundan so'ng, Shohrux Mirzo Amir Xudoydodni yengish uchun o'tlanadi. Mug'uliston xoni Mahmuddan yordam so'ragan amir Xudoydod Toshkent atrofiga Maxmudxonning birodari Shang'u Jahon bilan uchrashadi. Shang'u Jahon Xudoydodning murojaati masalasida o'z yaqinlari bilan maslahatlashib ko'rib: "Sohitbqiron hazratlarining qancha inoyatlar ko'rsatganiga qaramay uning farzandlariga hech vafo qilmagan amir Xudoydodni qatl qildiradi"<sup>44</sup> va uning kallasini amir Shohmalikka jo'natadi. Bu voqealardan so'ng Shohrux Mirzo Xo'jand viloyatida amir Xudoydodning o'g'li Amir Abduxoliq bilan ittifoq tuzgan Xalil Sulton ustiga yurish qiladi. Xalil Sulton bilan amir Abduxoliq Shohrux Mirzoga taslim bo'lishga majbur bo'ladi.

Shu tariqa, Shohrux Mirzo temuriylar salтанatida yuz berayotgan o'zaro ichki ziddiyatlarga, toju-taxt uchun bo'layotgan kurashlarga bir muncha chek qo'yadi. Xalil Sulton taslim bo'lganidan so'ng, Movorounnahr hukmdorligini 15 yoshli Mirzo Ulug'bekka berib, o'zi Hirotaga qaytib keladi. Bu haqida "Matlai sadayn" da quyidagicha keltirib o'tadi: "Hazrati Xoqoni Said Movorounnahr va Turkiston mamlakati viloyatini saodatli farzand, ruh rohatiyu dil quvvati, ko'z nuriyu din ko'makchisi Mirzo Ulug'bek ko'ragonga bag'ishladi"<sup>45</sup>.

Shohrux Mirzo akalari Jahongir, Umarshayx va Mironshohning avlodlarini o'ziga bo'ysindirib, Movorounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Shimoliy Hindiston, Eron, Ozarbayjon va Iroqdan iborat katta bir davlatni jilovini qo'lga kiritdi va "Ulug' Xoqon" sifatida saltanatni boshqara boshladi<sup>46</sup>.

Shundan so'ng, Shohrux Mirzo bir qator hududlarni temuriy shahzodalarga suygur'ol qilib beradi. Jumladan, Xisori Shodmon viloyatini Mirzo Muhammad Jahongir ibn Muhammad Sultonga, Qandahor, Kobul, G'aznadan tortib Sind daryosigacha bo'lgan yerlar va Afg'onistondan tashkil topgan viloyatni Pir Muhammadning o'g'li Mirzo Qaydu Bahodirga, Balx viloyati va uning atroflarini Mirzo Ibrohim Sulton bahodirga suygur'ol qilib topshiradi<sup>47</sup>.

Shohrux Mirzo Hirotni o'zining poytaxti qilib, u yerda ko'plab masjid, xonaqoh, madrasa hamda bozorlar qurdirib, uni ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlantiradi. Shundan so'ng u mamlakatning boshqa shaharlarini ham obod qilishga kirishadi. Jumladan bu haqda "Matlai sadayn" da quyidagicha keltirib o'tilgan: "... Hazrat Xoqoni Said (Shohrux Mirzo) ning nurlu xotiri davr o'tmishi bilan yemirilgan va vayron holda yotgan Marv shahrini yana (qadimgi) obod holiga keltirishni zarur deb topdi, hamda Xuroson shaharlarining mashhurligidan biri va baxtiyor sultonlarning taxtgo'hi bo'lib kelgan, ammo zamona... ta'siridan yemirilib, imoratlaridan nishonayru shakllardan bo'lak hech narsa qolmagan bu joyni tuzatishni buyurdi"<sup>48</sup>.

Shohrux Mirzo otasi Amir Temur an'alarini davom ettirib, ilm-fan va madaniyat rivojiga kuch g'ayratini sarfladi: Shohrux davrida Hirotda shahrida qadim vaqtlardan beri usti yopilmay qolib, bozor ahli gard-u g'ubor ham yog'in yog'ishidan ko'p zaxmat tortib kelayotgan shahar bozorlarini buzib tashladi va yangidan ganch va pishiq g'ishtdan bozorlar

<sup>40</sup> "Matlai sadayn", 1969, 99-bet.

<sup>41</sup> "Matlai sadayn", 1969, 108-bet.

<sup>42</sup> "Matlai sadayn", 1969, 112-113 bet.

<sup>43</sup> "Matlai sadayn", 1969, 126-bet.

<sup>44</sup> "Matlai sadayn", 1969, 132-bet.

<sup>45</sup> "Matlai sadayn", 1969, 135-bet.

<sup>46</sup> Fayziyev X. Shohrux Mirzo. // Moziydan sado. 4 son. 2004. — 17-18 betlar.

<sup>47</sup> "Matlai sadayn", 1969, 136-137 betlar.

<sup>48</sup> "Matlai sadayn", Toshkent, 1969yil, 140-141 betlar.

ko'tardi hamda oliy toqlar qurib ustini yopdi. Chorsuni o'rnatish: to'rt tarafi barobar, to'rtburchak shaklida bo'lib, mavzelerini sarasi bo'lmish Hirot markazida joylashgan.

Xoqoni Said davrida ziyarak fikr muhandislar va nozik ishlar qiluvchi tezkor binokorlar zo'r san'at va kamoli diqqat ko'rsatib, o'z davrining mashhur madrasa va xonaqohini 1410-1411 (hijriy 813) yili qurib bitkazishdi. Madrasa va xonaqoh maydoni joylashgan yerning markazida bir saroy sahni, supa, baland bir toq va ikkita tomonida ajoyib minora qad ko'targan bo'lib, ularning barchasi tilla va lojuvardlar bilan bezatilgan. Ushbu madrasada dinning asoslari va shaxobchalarini tushuntiruvchi fanlarga oid hamda qonuniy masalarni o'z ichiga olgan kitoblarning asllarini sandiqlarga solib saqlashgan. Shohrux madrasasida to'rt nafar mudarris: Jaloliddin Yusuf Uvbahiy, Jaloliddin Yusuf Xalloy, Mavlono Nizomiddin Abdurahim Yor Ahmad, Xo'ja Nasiruddin Lutfullohlari fiqh, tafsir, islom ilmlari bo'yicha dars berishgan. Maorifpanoh Xonaqohiga shayxlik mansabi janob shayx-ul islomi a'zam, olam mashoyixlarining rahbari Xo'ja Alouddin Ali Chishtiyga topshirildi<sup>49</sup>.

Hirotning shimoliy-sharqida yer-u falak cho'qqisidek baland, bog'i Safed deb nomlanib kelingan mavzeda zulqa'da o'yining 24-sanasida, juma kuni (1411- yil 20-mart) bog'i Safed va bir ko'shk qad ko'tardi. Uning muqarnas ayvonining to'rt toqi Kayvon sayyorasining qubbasimon toqiga yetkazib qurilgan, baland kungirasi esa Mushtariy sayyorasining kamaridan o'tkazilgan, devorining izorasi yashin tushidan ishlanib, ustiga bo'rttirib ishlangan rasmlar bilan naqshlangan. Kimki, u bog' sayliga erishgan yoki u shodlik saroyiga yetishgan bo'lsa, u oliy jannatning ruhparvar oromini his qilgan bo'ladi.

Shohrux Mirzo yosh bo'lsa ham tadbirli yigit edi. Katta xotini Milkat og'oni Umarshayx Mirzodan tug'ilgan o'g'li Iskandar Mirzo bilan Farg'ona vodiysini boshqarishga yubordi. Yana bir xotini To'tuniso begim o'g'li Ibrohim Mirzo bilan Buxoroda yashay boshladi. Samarqandning mashhur Bog'i Dilkushosi Ulug'bek va Gavharshod begim ixtiyorida qoldi. Samarqand poytaxt bo'lgani uchun Shohrux Mirzo ham ko'proq shu yerda bo'lar va Gavharshod begim bilan Bog'i Dilkushoda yayrab istiqomat qilar edi.

Begim hayotining shu vaqtgacha bo'lgan eng shodon kunlari Samarqandda, Bog'i Dilkushoda o'tdi. Shohrux Mirzo Gavharshod begimni davlat ishlariga yaxshi tushunadigan aqli va marifatli ayol

sifatida ham yaxshi ko'rar, ba'zi murakkab muammolarni hal qilishda begimning maslahatini olar edi. Ana shunday maslahatlardan biri Samarqanddan Toshkentga borayotganlarida Jizzax bilan Sirdaryo oralig'idagi qaqroq cho'lga suv chiqarish borasida bo'ldi. Amir Temur o'g'liga Tabrizdan Samarqandga jo'natayotganda:

— El-yurtning mushkulini oson qilgin, adolatli yo'l tutgin, savob ishlar qilib ko'pchilikning duosini olgin! — deb nasihat qilgan edi. Shu sababli, Shohrux Mirzo Sirdaryoning chap tomonidagi suvsiz cho'lda qiynalib yashayotgan aholining arz-u dodini eshitganda o'sha nasihatlar uning yodiga tushdi. Ayni o'sha onda bo'lgan subhatga nazar tashlasak:

— Sardoba qurdirsakmikin? — dedi u Gavharshod begimga. Gavharshod begim Zarafshon daryosidan chiqarilgan Darg'om anhorini uning yodiga soldi. — Sirdaryoning suvi Zarafshonnikidan ham ko'p, amirzodam, — dedi. — Agar undan Darg'omga o'xshagan Shoxariq chiqarilsa, qancha suvsiz joylar obod bo'lgay! Qancha odamlar sizni duo qilgay!

Toshkentga borganlarida Shohrux Mirzo muhandislar va miroblarni to'plab, Sirdaryodan cho'lga qarab Shoxariq qazish bo'yicha loyiha tuzishni buyurdi. Loyiha to'rt oyda tayyor bo'ldi. Kuz payti dala ishlari kamayganda daryo bo'yida yashaydigan minglab odamlar loyihadagi shoxariqni qazishga safarbar etildi. Xalq o'zi hashar qilib, ishini bir yilda bitirdi. Cho'lga suv kelib, bog'-rog'lar, obod manzillar paydo bo'lgandan keyin odamlar yangi shoxariqni "Mirzo ariq" deb atay boshladilar. Butun cho'l esa Mirzacho'l nomini oldi.

Shohrux Mirzo va Gavharshod begimning Turonda orttirgan bu tajribalari keyinchalik Xurosonda ham ish berdi. Qadimgi Marv shahri Chingizxon davridan buyon qumlarga ko'milib, inson zoti yasholmaydigan xarobazorga aylanib qolgan edi. Bir yuz-u sakson yil, ya'ni salkam ikki asr kimsasiz yotgan Marv shahrini qayta jonlantirish uchun Chingizxon buzdirib tashlagan Murg'ob daryosidagi to'g'onni qayta tiklash, qumga ko'milib qolgan ariqlarni ochib, obihayot keltirish zarur edi.

Shohrux Mirzo otasining saltanatini qayta tiklashga muayassar bo'lgan milodiy 1410 yilda Gavharshod begim unga Marvni eslatdi:

— Mirzacho'lda Shoxariq qazdirganingiz uchun odamlar sizni haligacha duo qilar ekanlar. Mana hozir xudo sizga shunday ulug' saltanatni qaytarib berdi. Endi buyuk bir savob ish qilsangiz...

— Yana qanday ish?

— Hazratim, yana emas. Bu hali hech kim qilmagan betakror jasorat bo'lur. Qadimgi Marv shahrini qayta tiklash uchun olim muhandislar.

<sup>49</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Mad'hai sa'dayn va majma'at ul-bahrayn. -T., 2008.

shaharni loyihalasini menga ko'rsatdilar. Mahalliy aholidan ko'plab insonlar hasharga keldilar. Murg'ob daryosidagi buzilgan to'g'on qayta tiklanma, xalq o'zi ariqlarni qumlardan tozalab olgay. Suv borsa Marv qayta tirilgay!

Bu taklif Shohrux Mirzoni qiziqtirib qo'ydi. Chindan ham buzib tashlangan to'g'onni qayta tiklash mumkin ekan. Bu ishga Xurosonning barcha savobtalab olim-u muhandislari, quruvchi-yu miroblari jalb etildi. Davlat xazinasidan katta mablag'lar ajratildi. Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi chog'ida qo'lga kiritilgan fillar ham ushbu hasharga jalb qilindi. Ushbu fillar 11 yildan beri Hirotd filxonasida filbonlar tomonidan parvarish qilinardi edi.

To'g'on bitguncha uzunligi o'n ikki farsax, kengligi yigirma gaz, chuqurligi besh gaz keladigan ulkan o'zan ham tayyor bo'ldi. Bu ishda Turondan Ulug'bek Mirzo boshlab kelgan minglab ustalar va yer qazuvchilarning xizmati ham katta bo'ldi. Qazuv ishlariga usta bo'lgan xorazmliklar ham yordamga keldilar. Juda ko'p ishlarni Xuroson xalqi hashar yo'li bilan amalga oshirdi. Bu ulkan ishning boshida Shohrux Mirzoning o'zi turdi. U yo'q paytda Gavharshod begim o'gli Ulug'bek Mirzo bilan barcha ishlarni boshqarib turdilar. Nihoyat, bahorda Navro'zning dastlabki kunlarida to'g'on ishga tushdi, barcha ariqlarga suv keldi. O'sha yiliyoq dehqonlar Marv atroflarida besh ming juft ho'kiz bilan yer haydab ekin ekdilar, yangi bog'i-ariqning tahrini chizib, behisob ko'p ko'chat o'tqazdilar. Ilgari, obod shahar o'rnida vayronalar, xarobalar yastanib yotar, faqat Sulton Sanjar maqbarasining devorlari so'ppayib uzoqdan ko'rinardi. Mana Shohrux Mirzoning sa'yi harakatlari natijasida shunchalar obod etildi-ki, oradan o'ttiz yil o'tgandan keyin Samarqandga borayotgan begim Marvga yana kelganda muhtasham binolar, masjid-u madrasalarni ko'rib, astoydil quvondi<sup>50</sup>.

Shohrux davrida bunyod etilgan yana bir ulug'vor binolardan biri bu—Gavharshodbegimning hissasi ila qad ko'targan madrasadir. Ushbu madrasa Hirotning shimolida Sari Puli Injilda 1433 yili (646 yil) qurib bitkazildi. U shunday mohirlik bilan bunyod etildiki, o'sha davrda ma'mur qilingan inshootlar ichida eng o'zgachasi, ya'ni o'xshashi yo'g'i edi. Gavharshodbegim madrasasini qurilishiga o'z davrining mashhur me'mori Quvomiddin me'mor Sheroziy boshchilik qilgan. Madrasaning xatibi etib Shayx Shahobuddin ibn Shayx Ruknuddin ibn Shayxulislom Shayx Shahobuddin al-Bistomiyy tayinlandi. Madrasa asosan, xonaqoh vazifasini ham o'tagan. Boysung'ur Mirzo, Boysung'ur Mirzoning qizi Oisha begim, Gavharshod begimning qizi Maryam aynan shu madrasada dafn etilgan.

Shohrux Mirzoning yana bir zavjasi Milkat og'o hisoblanadi. U akasi Umarshayx Mirzoning sobiq rafiqasi edi. Milkat og'o hijriy 751 yilda vafot etadi. "Milkat og'o Balx shahrida o'zi qurdirgan madrasa gumbazi ostiga dafn qilindi". Bu ma'lumotdan ayonki, Balx shahrida Milkat og'o o'z madrasasini qurdirgan va Xoqoni Said davridagi uchinchi madrasa bo'lgan. Bu madrasaga, keyinchalik, Milkat og'oning farzandi Suyurg'atmish ibn Shohrux ham dafn qilindi.

Shohrux - temuriylarning eng mashhur va oliyjanob bir shahzodasi bo'lib, uning saroyi zamonasining fan va maorif o'chog'i edi. Xurosonning maorifga moyil Eron unsuri orasida u o'zini nihoyatda baxtli hisoblard.

Shohrux Mirzo haqida so'z borganda, avvalo, uni mamlakatda diniy ilmlarni yuksaltirganligini aytib o'tish joiz. U o'z davrida "Islom podshohi" deya ulug'lanishi bejiz emas. Xoqoni Said buyrug'i bilan mamlakatda hatto ichkilik man etiladi. "U hazrat safarda ham, muqim turgan vaqtlarida ham bayz kunlarida va oy boshlarida ro'za tutardi, har haftada dushanba va payshanba kechalari xushovoz qorilar barchadan bilimdon Tangirining kalomini, ya'ni Qur'oni Karimni tilovat qilishardi". Shohrux saroyda tarix, tafsir, hadis kitoblarini qirotat qilish bilan mashg'ul edi. Hukmdorning diniy ilimga bu qadar qiziqishi uning saroyga din vakillarini to'plashiga sabab bo'ldi.

O'sha davr zamonasining fozillaridan biri, bir qancha asarlar muallifi Shayx ul-islom al-Jazariy hisoblanadi. Uning qalamiga mansub "Kitobi bidoyat dar mustalhoti ilmi hadis" ("Hadis ilmi istilohlari bo'yicha boshlang'ich kitob") asari bo'lib, "ziyrak kishilar ko'zi bu dunyoda unga o'xshash ikkinchi kitobni ko'rmagan, e'tibor ahlining xush qulog'i unga o'xshashini eshitmagan" deya ta'riflangan, ushbu asar 1428 yili yozib tugallangan.

Shayx ul-islom al-Jazariyning ilmi shunchalar o'tkir bo'lganki, "faqirlar otasi" nomini olgan mavlono Jaloliddin Is'hoq "Sahihayn" dan imtihonni aynan Shayx ul-islom janoblariga topshirgani uning zehni qanchalar o'tkir bo'lganidan dalolat. Unga zamondosh hadisshunos olimlar safidan Shayx Ali Kalon, Saydi Ahmad Kabir, Shayx Abu Is'hoq, Ruknuddin Muhammad kabi olim-u fuzalolar o'rin olgan<sup>51</sup>.

O'z davri ulamolarning eng fozili, fuzalolarning eng komili bo'lmish, tavallud ayyomi qachonligi noma'lum, ammo 1432 yil 12 avgustda Hirotda vafot etgan Xoja Soinuddin Ali Isfaxoniydir. U arab va fors tillarida qalam tebratgan. Asarlari "Sharhi Fusus al-hikam", "Kitobi

<sup>50</sup> Pirimqul Qodirov. Shohrux va Gavharshod. -T.: O'zbekiston, 2014

soha rivojiga ulkan hissa qo'shgan<sup>52</sup>. Temuriy shohlar o'z davrining ilmiy kishilari bo'lishgan. Shu jumladan, Mirzo Abulqosim Bobur zehni va ilmi bilan shuhrat qozongan. Uning qalamiga mansub "Lamoat", "Gulshan-u roz" asarlarini hamda "Fusus al-hikam" foydali fikrlardan iborat asarini Shohrux Mirzo xotirasiga bag'ishlab yaratgan.

Shohrux davrida xattotlik ilmi ham o'zining yuksak cho'qqisiga erishdi. O'sha davr mashhur xattotlaridan biri Shamsuddin al-Xeraviy edi. U xattotlik ilmini ustoz mavlono Ma'ruf Xattoti Bag'dodiydan o'rgangan. Xeraviy o'zining xatlaridan aksarlarini Qiblat ul-kutub—"Kotiblar qibliasi", Yoqut al-Musta'simiy nomi bilan yozgan va shu sababli u yaratgan xat turi "Yoqut xati" deb qabul qilindi<sup>53</sup>.

Turli xat uslublar, ayniqsa nastaliq xatini yozish bo'yicha "Ikkinchi Xoja Mir Ali" nomi bilan ulug'langan Ja'far Tabriziy mashhur xattotlardan edi. Xattot Ja'far Tabriziyning shogirdlari: mavlono Zahiruddin Azhar, mavlono Shahobuddin Abdulloh va mavlono Jaloluddin Shayx Mahmud hech mobolag'asiz xattotlik ilmining yetuk namoyondalari bo'lib, "xututi sitta"—yetti xat turi bo'yicha eng benazirlari edi.

Ayni shu davrda kitob muqova qilish va uni naqshlash ham yuksalgan sohalardan edi. Bu davrga qadar qanchadan qancha maliklar ushbu sohani rivojlantirish uchun harakat qilishsa-da, bu yuksalishga erisha olmagan edi. Bundan tashqari zargarlik, duradgorlik, o'yimkorlik va ta'mirchilik sohasi kishi hayolga keltira olmaydigan darajada yuksaldi.

Sulton Ahmad Bag'dodiy davrida musiqa ilmi rivojlangan bo'lsa, Shohrux davriga kelib esa ushbu ilm ikki pog'ona yuksalganini ko'rishimiz mumkin. Sulton Ahmad Bag'dodiy davrida eng mashhur musiqashunos Xoja Ruzvonshoh sanalgan. Xoja Ruzvonshoh musiqiy bir navbat tuzgan bo'lib, u o'n ikki maqom, yigirma to'rt shu'ba va shu bob hisobiga kiradigan boshqa usul hamda nag'malar, naqrotlardan tarkib topgan edi. U ushbu tuzgan musiqiy navbati bilan faxrlanib yurar edi. Xoqoni Said davriga oid bo'lgan o'z davrining yetuk musiqashunosi Xoja Abdulqodir Ramazon o'zining har bir kunida bitta nag'ma tuzishga ahd qiladi. Shunday qilib, o'ttiz kun davomida o'ttizta mukammal nag'ma tuzishga muvoffaq bo'ladi. Xoja Abdulqodir bu ishi bilan musiqa ilmini yuksak darajada yuksaltirdi va "Yori Aziz" maqomiga ega bo'ldi<sup>54</sup>.

XV asr musavvirlik sohasida tub burilishlar yasalgan asrdir. Bu davrda asarlar asosan miniatyuralar va tabiat tasvirlari bilan boyitilgan.

mafosis", "Sharhi qasidai Ibn Foriz" hisoblanib, ijod mahsuli o'ta latofatli hamda yetuk asarlari sanalgan. Barchamizga ma'lumki, tarix zarvaqaraqlarini aniq bila olishimiz o'sha davrda yaratilgan tarixiy asarlar bilan bog'liq. O'z davrining yuksak tarixshunosi Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma" ayni shunday qimmatli asarlar sirasiga kiradi.

Yana bir tarix sahifalarini yorituvchi tarixnavislardan biri Shamsuddin Xojarimiy va Qutbuddin Ahmad al-Imomiy edi. Ularning asarlarida hamda Sayid Sharifning "Sharhi Matole" da saroy ichidagi nizolar ochiq-oydin yoritilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy yigirma besh yoshga yetganida latofatli risola tuzishga muvoffaq bo'ladi va Xoqoni Shohrux nazariga tushishga erishadi. Ushbu risola "Sharxi risola" deb nomlangan bo'lib, Xoqoni Saidning humoyun laqablari bilan bezatiladi. Ijodkor o'z asari haqida shunday deydi: "U shunday bir risolaki, ma'nilarining bo'liqli, dalillarning pishiqliqi, go'zal va nozik tarkib etilganligi jihatidan unga teng keladigan risolani hech bir sinchkov kishining ko'zi ko'rmagan va unga o'xshashini hech bir kishining qulog'i eshitmagan". Mazkur risola Qozi Azduddinning "Risolayi Azudiya" asariga sharh sifatida yaratilgan. "Sharhi risola" da "Risolayi Azudiya" dagi harflar va ismi ishorat ma'nilarini eng yaxshi tarzda izohlagan, foydalar hilollari-yu qimmatbaho durlarni jamlagan asarning sharhlari o'rta o'rin olgan.

Shohrux davrida o'z zamonasining nodir asarlari yig'ilgan kutubxona mavjud edi. Bu kutubxonaning dong'i butun dunyoga taralgan edi. Shu jumladan, Misr sultoni Sulton Chaqmoq Xurosonga maxsus elchilar yuborib, Shohrux kutubxonasida besh nodir asarni: Shayx Abu Mansur Moturidiyning "Ta'viloti ahli sunna", Imom Fariduddinning "Tafsiri kabir", "Sharhi Talhisi Jome", Mavlono Alouddin Pahlavonning "Sharhi Kashshof" asarlarini sovg'a tariqasida berishini iltimos qiladi. Nodir aql egasi bo'lmish Shohrux ushbu asarlarni kutubxonadagisini emas, balki ulardan yangidan nusxa ko'chirilgan variantini yuborishini buyuradi. Bu esa nodir asarlarni yo'qolib ketish xavfini kamaytirar edi.

Ulug'bek astronomiya sohasida o'ta bilimdon shaxs bo'lgan. O'zining bu sohaga bag'ishlangan "Ziji jadidi Sultoniy" (Abdurazzoq Samarqandiy asarida shunday nom bilan yuritilgan, boshqa manbalarda "Ziji jadidiy Ko'ragoniy" deb ham yuritiladi) asarini hukamolar ustoz bo'lmish Xoja Nasiruddin Tusiyning "Ziji Elxoniy" asariga javoban yaratgan. O'sha davrning ko'zga ko'ringan astronomiklaridan yana biri Xoja Abul Vafo Xorazmiy bo'lib, o'zining "Lubbul—Albob" asari bilan

52 Abdurazzoq Samarqandiy. Matlali sa'dayn va majmaua ul-bahrayn. -T., 2008.

53 Nazirov B.S. Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shohrux va Mirzo Ulug'bek. T., 2022.

54 Abdurazzoq Samarqandiy. Matlali sa'dayn va majmaua ul-bahrayn. -T., 2008.

Kamoliddin Behzod, Sulton Muhammad kabi yetuk musavvirilar ijod qilgan. Asosan, Alisher Navoiyning, Xusrav Dehlaviyning, Sharafiddin Ali Yazdiyning asarlariga, Xojiyu Kirmoniyning "Navro'z va gul" asariga, Hofiz Sheroziy devoniga miniatyuralar chizilgan<sup>55</sup>.

Xalqaro munosabat va elchilik faoliyatida ham Amir Temur davri an'alarini davom ettirdi. Shohrux Mirzo davrida Xitoy, Janubiy Hindiston, Arabiston, Misr, Kichik Osiyo, Tibet, Mug'iliston, Dashti Qipchoq kabi bir necha davlatlar bilan elchilik aloqalarini o'rnatdi<sup>56</sup>.

Shohrux Mirzo valiahdlikka beshinchi o'g'li Muhammad Jo'kini mo'ljallagan bo'lsa-da, biroq tadbirkor va zukko malika Gavharshodibegim Muhammad Jo'kidan ko'ra boshqa nabirasi Alouddavlani munosib bilardi.

1445-yil Muhammad Jo'ki vafot etgach, Shohrux Mirzo umrining oxirigacha valiahd tayinlash masalasida biror qat'iy qarorga kelolmadi. 1446-yilda qarib qolgan va kasalmand Shohrux Mirzo isyonkor nabirasi Sulton Muhammadga qarshi harbiy yurish boshlaydi. Qazvin, Ray, va Qum viloyatlarining hokimi bo'lgan nabirasi Sulton Muhammad Istafahon bilan Hamadonni egallab, Sherozni qamal qilgan edi. Kasal bo'lishiga qaramay qo'shinga bosh bo'ib bobosining o'zi kelayotganligini eshitgan Sulton Muhammad uch haftadan beri davom etayotgan qamalni bo'shatib, ortga chekinadi. Shohrux Mirzo isyon sabablarini o'rganib chiqib, bir necha ulamolarni hibsga olib, Sovaga kelganida ko'pi sayyidlardan bo'lgan ulamolarni Gavharshodibegimning talabi bilan qatl ettiradi. Shohrux Mirzo harbiy safardan qayta turib, 1447-yil 12-martda 70 yoshida vafot etadi.

Shohrux Mirzo umrining oxirigacha ulkan saltanatning ulug' xoqoni sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uning hukmdorligi davrida saltanatda birlik, to'kinlik va osoyishtalik hukm surdi, bu esa, o'z navbatida, ulkan saltanatda ilm-fan, iqtisodiyot, me'morchilik va shaharsozlikning yuksak darajada rivojlanishiga imkon yaratdi.

Temuriylar avlodidan bo'lgan, Amir Temurning suyuqli nabirasi Mirzo Ulug'bekka ham shon-shuhrat va jahoniy e'tirof boshqa jihatlardan nasib etdi. Temurning muqaddas xotirasiga chuqur hurmat bilan yondashgan holda Ulug'bek buyuk bobosiga xos jahon miqyosidagi siyosiy va davlat arbobi bo'lishdek ulug' fazilatlarini merosga olgani yo'q. Shu bilan birga Movorounnahrning oliy hukmdori sifatida Mirzo Ulug'bek bobosi Amir Temurning vasiyatiga sodiq qolishga va uning an'alarini munosib ravishda davom ettirishga kirishdi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi tarixini yoritishda o'sha davrda yozilgan tarixiy asarlar mavjud. Lekin ular orasida Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlati sadayn majma ul-bahrayn" asarida keltirilgan bir qator tavsilotlar boshqa muallifning asarlarida uchramaydi. Ushbu asarda ko'rsatilishicha Amir Temurning Old Osiyoga qilgan "besh yillik yurish"i paytida, qo'shin G'arbiy Eron va Iroqda turganida, hijriy 796-yil jumadiy ul-avvalning 19-sanasida (milodiy 1394-yil 22-martida) Temurning 17 yashar kichik o'g'li Shohrux Mirzoning lashkar o'g'ruqida, Sultoniya (Janubiy Ozarboyjonda) turgan xotini Gavharshod Og'a ko'z yorib, o'g'li ko'radi. Bu payt Iroq Jazirasida endigina zabt etilgan Morden shahri bo'sag'asida turgan Temurga 17-aprel kuni chopar kelib, baxtli voqea haqida habar yetkazadi. Yangi tug'ilgan bolaga katta bobosining nomi bilan Muhammad Tarag'ay ismi beriladi. Lekin, uning bobosi alohida mehr bilan "Ulug'bek" deb atayvergani uchun uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi<sup>57</sup>. Temur Ulug'bekni tarbiyalashni o'zining bosh xotini Saroymulkxonumga topshiradi.

Amir Temurning "yetti yillik yurish"idan so'ng, Samarqandga qaytib, hijriy 807-yil rabi ul-avvalning 1-kunida "bichin" (maymun) yili, ya'ni millodiy 1404-yil 7-sentabrda Konigilda qurultoy chaqirib, nabiralarni uylantirish munosabati bilan ulkan to'y boshlaydi. Ushbu nabiralari orasida Ulug'bek ham bor edi. Temur uni Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sultonning qizi O'gay begimga uylantiradi.

Amir Temur Xitoyga yurish boshlashdan avval o'z saltanatining sharqidagi yerlarni Shohruxning o'g'illari bo'mish o'zining ikkita sevimli nabirasi o'rtasida quydagicha taqsimlaydi: Toshkent, Sayram va Jeta o'lkasidan to Xitoygacha Ulug'bekka tegadi; Andijon Axsikat, Taroz va Qoshg'ardan to Xo'tangacha ularga tutash yerlar Ibrohim Sultonning tegadi<sup>58</sup>.

Amir Temurning vafotidan so'ng boshlanib ketgan temuriy shahzodalalar o'rtasidagi kurash natijasida vaziyat nihoyatda keskinlashib ketadi. Bunday murakkablashib borayotgan vaziyatda Shohruxning yosh o'g'illari Ulug'bek va Ibrohim sultonning otasi bilan birga Hirotda bo'lganlari ma'qul edi.

Ulug'bek Hirotda kelishi bilan Xurosonning harbiy-siyosiy hayotiga faol shon'g'ib ketadi. U 1406-yil boshidayoq o'z otabegi Shoh Malik bilan birgalikda Balx va Shibirg'on atroflariga bosib kelgan Xalil Sultonning qarshi jangda ishtirok etadi<sup>59</sup>.

57 "Matlati sadayn", Lohur, 1949.

58 Ashraf Ahmad "Ulug'bek Muhammad Tarag'ay", 1994, 111-bet.

59 "Matlati sadayn", 1969, 85-86 betlar.

55 Abdurazzoq Samarqandiy. Matlati sa'dayn va majma'ul-bahrayn. -T., 2008.

56 "Matlati sadayn", Lohur, 1933, 154, 183, 199, 218, 227, 341, 345, 364, 382, 449, 467-betlar.

1406-yil sentabrda Shohrux Ulug'bekni Tus, Nishopur, Sabzavor, Xabushon, Obivard, Naso, Yazar, Samongan, Mashhad, Jarmugon va Qalat shaharlarining hokimi etib tayinlaydi. Bu haqda "Matlai adayn" da quyidagicha keltiradi: "... Tus, Xabushon, Kalot, Bovard, Niso, Yozir, Sabzavor, va Nishopur viloyatini shohril osmonining yulduzi, Alloh lutfining soyasi, davlat va dinning ko'makchisi Mirzo Ulug'bek ko'ragonga topshirdi hamda unga shaharlaru insonlar borasida adolatli va rahm-shavqatli bo'lish yuzasidan ta'lim berdi"<sup>60</sup>.

O'sha yilni qishini Mirzo Ulug'bek otabegi Shoh Malik bilan birga Astrobodda – Jurjon dengizining janubiy-sharqida o'tkazadi. 1407-yil bahorida Shohrux Ulug'bekning mulkiga Astrobodni o'z ichiga olgan Mazondoron viloyatini ham qo'shib beradi<sup>61</sup>.

1409-yil 30-martida Xalil Sulton Samarqand yaqinida, atidan Shohruxning buyrug'i bilan ish tutayotgan amir Xudoydod Husayniy tomonidan xibsga olinadi. O'sha payt, Shohrux katta lashkar bilan, Ulug'bek va Shoh Malik istirokida, Amudaryo bo'yida tayyor bo'lib turgan edi. Xalil Sultonning ahvoli unga ayon bo'lgach, Shohrux darhol daryodan o'tib, 1409-yil 13-mayida Ulug'bek va Shoh Malik bilan birga Samarqandga kirib boradi. Shohrux Ulug'bekni Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi va Shoh Malikni esa – uning homiysi va maslahatchisi etib tayinlaydi. Shu vaqtdan boshla Ulug'bek to'la taxt nomi bilan Abdulfath Muhammad Tarag'ay Ulug'bek deb ataladi. Ushbu voqea "Matlai sadayn" da quyidagicha aks etgan: "Hazrat Xoqoni Said Movarounnahr va Turkiston mamlakatini saodatli farzand, ruh rohatiyu dil quvvati, ko'z nuriyu din ko'makchisi Mirzo Ulug'bek Ko'ragonga bag'ishladi. ....Hazrati Xoqoni Said saodatmand farzandning saltanat asboblari muhayyo qilib, ... u viloyatning hal qilish va man etish jiloviyu yig'ib olish va tarqatish ixtiyorini ... ulug' amir- amir G'iyosiddin Shoh Malikning tog'ri rayi va ziyrak fikriga topshirdi ..."<sup>62</sup>.

Biroq Amir Temurning sobiq lashkarboshisi O'tror noibi, Shayx Nuriddin isyon ko'tarib, 1410 yilning ilk bahorida o'zining sobiq safdoshi bilan Shoh Malik va Ulug'bekka qarshi jangga chiqadi. Ulug'bek bilan Shoh Malik yengiladilar va 20 iyun kuni u ham o'z lashkari bilan Kalifga ketadi. Shayx Nuriddin bilan bo'lgan ikkinchi jangda ham Shoh Malik yengiladi va Samarqand tarafga chekinadi. Keyinroq, asosiy kuch bilan yetib kelgan Shohrux Mirzo 1410-yil 12-iyulda Shayx Nuriddin bilan jang

<sup>60</sup> "Matlai sadayn" 1969, 98.-bet.

<sup>61</sup> "Matlai sadayn" 1969, 110-111 betlar.

<sup>62</sup> "Matlai sadayn" 1969. - 135-bet.

qilib, uni yengadi<sup>63</sup>. Shunday qilib, Ulug'bekning havfli dushmani yo'q qilindi.

Movarounnahrdaagi ahvoldan xavotirlanib, Shohrux 1411 yil sentabrda yana Samarqandga keladi. Lekin, to'la tartib o'rnatilganligining guvohi bo'lib, Shohrux o'sha yilning noyabridayoq Hirotaga qaytib ketadi va o'zi bilan Ulug'bekning homiysi amir Shohmalikni ham olib ketadi<sup>64</sup>. Shunday qilib 1411 yil oktabridan, ya'ni hayotining o'n sakkizinchi yilining o'rtasidan Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning birgina va mustaqil sultoni bo'ldi.

Ulug'bek saltanatning boshlanishida Temur vafotidan keyin uning avlodlari o'rtasida boshlangan muxolifat holi bartaraf etilmagan edi. 1413-yilning kuzida Umarshayxning o'g'li Mirzo Iskandar isyon ko'taradi<sup>65</sup>. Isyonni bostirish uchun Shohruxning shaxsan o'zi qo'shin to'plab boradi. Bu harbiy yurishga Ulug'bek faqat fillarini yuboradi. Bu yurishda Ulug'bekning qatnashmaganligiga sabab, Movarounnahrning o'zida ham vaziyat barqaror emas edi, Farg'ona hokimii bo'lmish Mirzo Amirak Ahmad, Umarshayxning ikkinchi o'g'li Ulug'bekka itoatsizlik bildirgan edi<sup>66</sup>. Ulug'bekning tinchlikka qilgan harakatlari natija bermagach, u Farg'onaga qo'shnlari bilan bordi. Avvaliga, Amirak Ahmad tog'larga qochadi, so'ng Qoshg'arni faqat 1416-yili o'z mulkiga qo'shib oladi.

Mirzo Ulug'bek 1419-yilda Oltin O'rdada hokimiyat uchun talashayotgan shahzodalardan biri, Oltin O'rda xoni Urisxonning nabirasi bo'lmish Baroqni qo'llab – quvvatlash maqsadida Toshkent taraflarga yurish qildi. 1422-yil Baroq Oltin O'rdada xonlik taxtiga o'tiradi<sup>67</sup>. Ulug'bek uni qo'llab-quvvatlash orqali o'z mulkining shimoliy hududlaridagi xavfsizlikni ta'minlashni maqsad qilgan edi.

Amir Temurning vasiyatiga ko'ra, Jeta (Mug'iliston) o'lkasi ham Ulug'bekning mulkiga kirardi. 1416-yildan 1420-yilgacha u yerda ham hokimiyat uchun kurash boradi. Mirzo Ulug'bek bu kurashlarga aralashib, 1421-yilning oxirida o'z odami Shermuhammadni Jeta (Mug'iliston) o'lkasiga hokim etib tayinlaydi. Lekin, Shermuhammad Ulug'bekka nisbatan ko'namaklik qilib, itoatsizlik bildiradi<sup>68</sup>. Natijada, Ulug'bek 1425-yil fevralning 2-yarmida Jeta o'lkasiga yurish qiladi. Ketmontepa butazorida bo'lib o'tgan jangda Ulug'bek katta g'alabaga erishadi. U 1425-

<sup>63</sup> "Matlai sadayn" 1969. - 148-149 betlar.

<sup>64</sup> "Matlai sadayn" 1969. - 163,165,167,169-betlar.

<sup>65</sup> "Matlai sadayn" 1969. - 189-190 betlar.

<sup>66</sup> "Matlai sadayn" 1969, 190-193 betlar.

<sup>67</sup> Bartold B.B., Улугбек и его воевод С102.

<sup>68</sup> "Matlai sadayn" 1969, 331.-bet.

yil 27-iyunida Samarqandga qaytib keladi va g'alabani tantanali ravishda nishonlaydi<sup>69</sup>.

Biroq, bu g'alaba Ulug'bekning o'z hayotida harbiy va davlat arbobi sifatida erishgan eng so'nggi yirik g'alaba edi. Taxtga chiqishida Ulug'bekning bergan yordamlarni unutgan Oltin O'rda xoni Baroqxon 1426-yil Sirdaryoning quyi va o'rta qoimidagi yerlarga da'vo qiladi. Natijada, Ulug'bek bilan Baroq o'rtasida urush kelib chiqadi. 1427-yil Sig'noq yaqinida bo'lgan jangda Ulug'bek yengiladi. Ulug'bek va ukase Jo'ki arang jon saqlab qolishadi. Baroqxon o'zbeklari g'alabaga erishganidan so'ng Movarounnahr va Turkistonning shahar va qishloqlarini talon taroj qila boshlaydilar<sup>70</sup>. Lekin, ular Movarounnahrning bosh shahri Samarqand va Buxoroga kirishga botinolmadilar.

Ulug'bekning otasi tiriklik davrida Movarounnahrda hokimiyat ko'proq Shohruxning obro' va e'tibori tufayli saqlanib turar edi. Shohrux 1447 yil martida qazo qilganidan so'ng, Ulug'bek saltanati halokatli ravishda inqirozga yuz tutdi. Shohruxning o'limidan so'ng uning tirik qolgan yolg'izgina o'g'li Ulug'bek ham temuriy shahzodalar o'rtasida boshlanib ketgan toju-taxt uchun bo'lgan kurashlarga qarshilik ko'rsata olmadi. Buning ustiga, o'z o'g'li Abdulatifning buyrug'i bilan Ulug'bek Samarqand yaqinida hijriy 853-yilda 8- (yoki 10) ramazonida (1449-yil 25 yoki 27- oktabrida) o'ldiriladi.

Mirzo Ulug'bek o'zining hukmronlik qilgan 40 yili davomida ichki siyosatida xalq ommasining ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini yaxshilashga, Samarqandni ilm – fan, madaniyat va ma'rifatning yirik markazi sifatida mavqeyini saqlab qolishga, tashqi siyosat sohasida esa qo'l ostidagi hududlarning mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora – tadbirlarni amalga oshirdi<sup>71</sup>.

Mirzo Ulug'bek faqatgina hukmdor sifatida emas, ma'rifatli buyuk olim ham hisoblangan. Ilm – fan sohasidagi va birinchi navbatda uning astranomiya singari tarmoog'idan jo'shqin va yuksak nufuzli faoliyati Ulug'bekning butun insoniyat oldidagi eng buyuk va ulkan xizmati bo'lib qoldi. Bu borada u tadqiqotchilik va o'z davrining buyuk allomasi sifatida yuksak qobiliyatini namoyish etdi. Ulug'bek zamondoshlari bo'lgan eng iste'dotli astranomlarga e'tibor berib va tadqiqotlarga jalb etib, ularning guruhiga boshchilik qildi va katta ishlarni amalga oshirdi. U o'z davrida ko'p tomontama yangi va mukammal bo'lgan "Yulduzlar to'plami" ni

tuzib chiqadi. Bu haqda "Matlai sadayn majma ul-bahrayn" asarida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Shaxzoda o'z zijiga tuzatishlar kiritib tamomlashiga muvaffaq bo'ldi va unga "Ziji Sultoni ko'ragoni" deb nom berdi. U munajjimlik san'ati-yu mohirlari va taqvim ustalari orasida qo'llanib kelinmoqda"<sup>72</sup>.

Mirzo Ulug'bek bobosi Amir Temur kabi ilm – fanning juda ko'p sohalari, xususan matematika, falakiyot, musiqashunoslik va tarix ilmlari bo'yicha zabardast olim, ilm – fan, madaniyatning ulkan homiysi<sup>73</sup> sifatida abjad ul – abjad tarixda qoldi.

Mavlono Navoiy aytganidek, Ulug'bekning avlodlari unutilib ketdi. Ularni davrimizda kim ham eslayapti? Ulug'bek esa ilm-fanga intildi va ko'p narsaga erishdi. Ulug'bek va uning safdoshlari ilmiy ishlarining muhim natijasi 1437 yilda asosan tugallangan "Ziji Ko'ragoni", ya'ni "Yangi fazoviy jadvallar" dir. Ulug'bek hayotining so'nggi kunlariga qadar bu asar ustida ishlagan. Asar mufassal kirish (nazariy) qism va jadvallardan iborat. Asarning birinchi qismi turli Sharq xalqlarining yilni hisoblash tarixiga, ikkinchi qismi amaliy fazoshunoslik masalalariga, uchinchi – sayyoralar nazariyasi bayoni va kichikroq to'rtinchi qismi esa falakiyotga bag'ishlangan. "Yangi fazoviy jadvallar" yaratilishidan oldin birinchi bo'lib, Gipparx yulduzlar jadvalini tuzgan edi. Unda 1022 yulduzning joylashgan o'rni berilgan bo'lib, u Ptolemeining "Al-majisti" asarida berilgan. Bu jadvallar ilmiy jihatdan qimmatli bo'lib, samoviy jismlar harakatini o'rganish uchun ajoyib manba hisoblanar edi. Gipparxdan so'ng yulduzlarning to'la jadvalini tuzgan ikkinchi fazoshunos Beruniydir. U 1029 ta yulduzning o'rni va holatini aniqlagan. Yulduzlarning to'la jadvalini tuzgan uchinchi fazoshunos Ulug'bek edi. Uning jadvali ancha qimmatlidir, chunki, u yulduzlarning Samarqand rasadxonasida aniqlangan haqiqiy joylashuviga asosan tuzilgan. U XVI asr mobaynida tuzilgan uchinchi jiddiy jadval edi. XV asrgacha faqat uch nafar fazoshunos – Gipparx, Beruniy va Ulug'bekning yulduzlar jadvali ahamiyatini to'liq angladilar.

Ulug'bek o'limidan so'ng rasadxona o'z faoliyatini tugatdi. Uning bitnosi va asbob-uskunalari vayron va talon-taroj qilindi. Olimlar esa, Samarqanddan boshqa Sharq mamlakatlariga ketishga majbur bo'ldilar. Bino XV asrdan to XVII asr boshlarigacha qad tiklab turgan bo'lsa-da, u faoliyatsiz edi. Biroq "Ziji Ko'ragoni" ustidagi ishlar asosan tugagan bo'lsa-da, Ulug'bekning izdosh shogirdlari, ayniqsa, Qozizoda Rumiy

<sup>69</sup> "Matlai sadayn", 1969 333-336 betlar

<sup>70</sup> "Matlai sadayn", 1969, 350- bet.

<sup>71</sup> "Matlai sadayn", 1969, 278-279 betlar.

<sup>72</sup> "Matlai sadayn", 1969, 279- bet.

<sup>73</sup> "Matlai sadayn", 1969, 278- bet.

vafotidan soʻng (1437) Ulugʻbekning yordamchisiga aylangan Ali Qushchi uni to 1449 yilgacha davom ettirdi. Buning sababi nima? Bu savolga javob ilgari ishlab chiqilgan Ulugʻbek munajjimlik maktabining 30 yillik ilmiy dasturini amalga oshirilishi zaruriyati bilan bogʻliq. Ulugʻbek shogirdi Ali Qushchiga bu dasturni bajarish ustida ishini davom ettirishga ruxsat bergan edi. Aynan ana shu davrda, Ali Qushchining tashkilotchilik qobiliyati kuchli namoyon boʻladi. Uning falakiyot va matematika sohasidagi ilmiy bilimlari keyinroq zamondoshlari tomonidan toʻla tan olindi. Faqat ustozining bevaqt oʻlimi Ali Qushchini Turkiyaga ketishga majbur qildi. Uning xizmati bilan “Ziji Koʻragoniy” va boshqa koʻplab qimmatli qoʻlyozmalar saqlanib qolgan.

Ularning bir qismi yoʻqolgan, boshqa qismi johil kuchlar tomonidan yoʻq qilingan. Qoʻlyozmalarning ozroq qismigina jahon kutubxonalarida saqlanmoqda. Ali Qushchining “Arifmetika boʻyicha risola” asari shular jumlasiga kiradi. U fors tilida boʻlib, London kutubxonasi va Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda. “Fazoshunoslik risolasi” ham shu ilmgohdadir. Bu asar 1975-yilda Toshkentda oʻzbek tilida nashr etilgan. Ali Qushchi Istanbulga kelgach, “Fazoshunoslik risolasi”ni forsiydan arab tiliga oʻgirib, turk sultoni Muhammad II ga tortiq qiladi. Bundan tashqari, u hozirda Ayo, Sofiya, Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan “Fatxiya” asarini yozdi. Ali Qushchi 1474 yilda Istanbulda vafot etgan.

Ulugʻbekning yulduzlar jadvali birinchi marta 1665-yili Oksfordda angliyalik T.Xayd, keyinchalik, 1767-yili G.Shakre, 1843-yili F.Bayl tomonidan nashr etilgan. Fransuz sharqshunosi Sedillot T.Xayd nashrini qayta koʻchirib, Ulugʻbekning kirish soʻzini va jadvallarini fransuz tiliga oʻgirdi hamda 1853-yili Parijda nashr qildi. Nihoyat, 1917-yilda “Ziji Koʻragoniy” AQShda nashr etildi. Bundan tashqari, Ulugʻbek “Ziji” va Nasriddin Tusiyning joʻgʻrofiy jadvallari 1652-yili Londonda birinchi bor nashr etilgan. Bu maʼlumotlar bizga “Mirzo Ulugʻbek-asrlar qarini yoritib oʻtib kelayotgan nur” deyish imkoyatini beradi<sup>74</sup>.

Astronom Gʻ.Jalolov Sovet Ittifoqi FA Astronomik kengashi qoshidagi astronomiya tarixi boʻyicha komissiyaning aʼzosi sifatida 1950-yillari Sharq astronomiyasi tarixi, jumladan, Ulugʻbek astronomiya maktabi tarixini oʻrganishda qizgʻin qatnashib, davriy ravishda chop etiladigan “Astronomiya tarixidan tadqiqotlar” kitobining birinchi sonidayoq “Ziji Koʻragoniy”ning shu kabi boshqa bir qancha “Ziji”lardan farqi va afzalliklarini yetarlicha toʻla yoritgan maqolasini eʼlon qilgan edi.

Samarqand rasadxonasi tadqiqot ishlarining asosiy mahsuli “Ziji Koʻragoniy” soʻzboshi, nazariy qism va zijdan(jadvallardan) iborat boʻlib, jami 430 sahifani egallaydi. “Ziji”ning jadvallsiz matnli qismi 60 sahifani, qolgan 370 sahifasi esa, astronomik, trigonometrik, geografik va astrologik jadvallarni tashkil qiladi.

Soʻzboshi atigi ikki sahifadan iborat. Unda rasadxona va “Ziji”ni tayyorlashda ishtirok etgan olimlar haqida gap boradi. Nazariy qism esa *toʻrt boʻlimdan* (maqoladan) iborat boʻlib, *birinchi boʻlim* oʻsha paytda asosiy taqvimlardan hisoblanmish - hijriy, Yezdigird, Jaloliy (Umar Xayyom loyihasi boʻyicha XI asrda Malikshoh tomonidan isloh qilingan taqvim), xitoy, uygʻur va boshqa bir qancha taqvimlar hamda ularning biridan ikkinchisiga oʻtish haqidagi hisob-kitoblarni oʻz ichiga oladi.

*Ikkinchi boʻlim* sferik va amaliy astronomiya masalalaridan tarkib topib, yoritgichlarning azimutlarini, Makkaga tomon yoʻnalishni aniqlash hamda yerda aholi punktlarining geografik uzunlama va kenglamalarini hisoblash usullarini bayon qiladi. Bu yerda mazkur jadvallarning tarkibi, ularning ishlatilishiga doir metodik koʻrsatma va maslahatlar beriladi.

*Uchinchi boʻlim* Quyosh, Oy va boshqa sayyoralarining harakat nazariyasiga bagʻishlangan. Ularning astronomik uzunlama va kenglamalar boʻyicha oʻrnlarni aniqlash va u bilan bogʻliq hodisalar, xususan, Quyosh va Oy tutilishlari haqida gap boradi.

Nihoyat, *toʻrtinchi boʻlim* uncha katta boʻlmay, “boshqa astronomik ishlar haqida”gi maʼlumotlarga, jumladan, bir necha sahifasi astrologiyaga oid jadvallarga bagʻishlangan. Bular ichida Quyoshning yulduzlar fonidagi yillik koʻrinma harakati nazariyasi bilan bogʻliq muhim astronomik doimiylik - Quyoshning yillik koʻrinma yoʻli tekisligining (ekliptikaning) osmon ekvatori tekisligiga (Yer ekvatori tekisligiga parallel tekislik) ogʻish burchagining kattaligi boʻlib, uni aniqlash bilan oʻrta asr astronomlarining juda koʻpchiligi shugʻullangan.

Arab va fors Sharqi mamlakatlari chegarasida joylashgan koʻplab aholi punktlarining geografik koordinatalari astronomik kuzatishlar asosida topilib, “Ziji”da keltirilgan xalifalikdan tashqaridagi joylarning koordinatalari esa, atfidan, oldingi “Ziji”larda keltirilgan maʼlumotlar asosida berilgan<sup>75</sup>.

Olamni oʻrganish, uning sir-asrorlaridan voqif boʻlish - insonning Yer yuziga kelishdan maqsadini aniqlab berishdek dunyoqarash vazifasini bajarishi bilan muhim hisoblanadi. U insonni cheksiz koinotning bir zarrasi va milliardlab yillar davom etgan uning evolyutsiyasining mahsuli

<sup>74</sup> Abu Tahir Xoja-Samariya. V.A. Vyatkin tarjimasini. 1898. Yav. 1899.

<sup>75</sup> Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati. Toshkent. 1994. 58 b.

ekanligini, u yashagan umr koinotning yoshi oldida atigi bir daqiqa ekanligini, har bir insonning "bir zumlik" hayotga kelishi mo'jizaviy bir holligini va bu "bir zumlik" umri pala-partish emas, balki buyuk maqsadlarga qaratib yashash zarurligini, bu ulug' nomga dog' tushirmay yashash lozimligini sezdirishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

G'arbiy Yevropa olimlari XVII asrga kelibgina Ulug'bekning ilmiy merosi xususida Sh.Grive (1648), T.Xayd (1665), Yan Gaveliy (1690) asarlari orqali xabardor bo'lishdi. Bu davriga kelib Samarqand rasadxonasi butunlay yo'q bo'lib ketgan edi. XV asrda O'rta Osiyoda tarixiy ilmlar ham yaxshi rivojlandi. Bu yerda Hofiz Abro', Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Isfizoriy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa tarixchilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari O'rta Osiyo tarixchiligining qimmatli manbalaridir. Masalan, Hofiz Abro'ning "Zubdat at-tavorix" ("Yilnomalar qaymog'i") asarida 1427 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Abdurazzoq Samarqandiy (1482 yilda vafot etgan) esa "Matlai sa'dayn majmua ul-bahrayn" ("Ikki baxtli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi") asarida 1471 yilgacha bo'lgan voqealarni tasvirlaydi. Bu kitob Xulakular avlodidan bo'lgan Abu Said tavalludidan to' temuriylar sulolasi Abu Saidgacha bo'lgan davrning (1304-1469 y.) tarixiy voqealarini o'z ichiga oladi.<sup>76</sup> Mirxond (1498 yilda vafot etgan) "Ravzat us-sayf" ("Tozalik bog'i") va uning nabirasi Xondamir "Habib us-siyar" asarlari Sulton Husayn podshohligi davri tarixiga bag'ishlanadi. Isfizoriy 1491 yili Hirotda tarixini yozdi. Davlatshoh Samarqandiy esa "Tazkirat ush-shuaro" asarini Alisher Navoiyga bag'ishladi. Bu asarda yuzdan ortiq shoirlar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlar jamlangan. O'rta Osiyo xalqlarining XIV-XV asr tarixini o'rganish davomida rasadxona qoldiqlari, o'sha davrning Samarqand va Buxorodagi ajoyib me'morchilik yodgorliklari jahon jamoatchiligi e'tiborini o'ziga qaratib keldi va bu qiziqish tobora kuchaymoqda. V. L. Vyatkin, V. V. Bartold, T. N. Qori Niyoziy va boshqalarning bevosita Ulug'bek davri tarixini o'rganish bo'yicha eng muhim asarlari, ishlari bilan tanishtirishni xohlardik.

Biz yuqorida Samarqand rasadxonasining o'rni, mavqei va ahamiyati xususidagi tarixiy manbalarni aytib o'tdik, 1908 yili V.L.Vyatkin XVII asr o'rtalariga mansub bir vaqf hujjatini o'rganayotganida hozirgacha Obirahmat arig'i va Naqshi Jahon degan joy nomlari bilan ma'lum bo'lgan "tole rasad" ning aniq chegaralarini topdi. Hujjat rasadxonaning o'rni haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar berardiki, unda aytilgan

topalikni topish hech ham qiyin emasdi. Ulug'bek rasadxonasidagi 1908-1909 yilgi qazish ishlari natijalari haqida V.L.Vyatkin O'rta va Sharqiy Osiyoni tarixiy arxeologiya, lingvistika va etnografiya jihatidan o'rganish Rus qo'mitasida hisobot berdi. 1909 yilgi qazish ishtarining birinchi kunlarida V.L.Vyatkin bir g'isht qalimligida, balandligi ikki metr atrofida bo'lgan aylana devor va uchta parallel joylashgan, ikkita g'isht to'siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgach chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalab, ocha borib arxeolog rasadxonaning asosiy falakiyotshunoslik uskunasi – ulkan kvadrantning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi.

V.L.Vyatkinning bu yutug'i shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Akademik Bartoldning aytishicha, Ulug'bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzusi sharqshunos sifatida uning e'tiborini tortdi. Bu qazish ishlari unga birinchi bo'lib "Ulug'bek va uning davri" asarini yozish imkonini berdi. Bu asar 1915-yil yozilib, 1918-yili e'lon qilindi. "Ulug'bek va uning davri"ni "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" asarining davomi desak ham bo'ladi. Bu asarning mazmuni nomiga qaraganda xronologik jihatdan ancha keng. V.V.Bartold dastlabki ikki bobda Chig'atoy davlati va Temur davlatining qisqa tavsifini keltiradi. Ulug'bekning bolalik va o'smirlik davri haqida ma'lumotlar kamligini e'tiborga olib, u bo'lajak O'rta Osiyo hukmdori va jahonga mashhur olim Ulug'bekning o'sha davrlar hayotiga oid deyarli barcha manbalarni o'rganib chiqadi. "Ulug'bek va uning davri" ning to'rtinchi va beshinchi boblari Movarounnahr hukmdorining ichki va tashqi siyosatiga bag'ishlangan. Va nihoyat, oltinchi bob Ulug'bekning shaxsiy hayoti va ilmiy mashg'ulotlariga bag'ishlangan.

Bartold asaridagi eng yaxshi sahifalardan biri – Ulug'bek hayotining so'nggi yillaridan boshlab, 40 yil davomida O'rta Osiyo siyosiy hayoti markazida turgan "qishloqi shayx" ga ilk bor tavsif berilgan joy. Akademik Bartold Xoja Ahrori xalq himoyachisi deb hisoblaydi. Bundan tashqari o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotining bir necha juda muhim tomonlari ham muallif e'tiboridan chetda qolgan. V.V.Bartold fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan, 1259-yilda qurilib, Qozonxon nazaridan o'tkazilgan, 1300-yillarda ham ishlab turgan Nasriddin Tusiyning Marog'i rasadxonasi haqida hech narsa demaydi. "Ulug'bek va uning davri" asari haqida V.V.Bartold "hali bor manbalardan to'laroq foydalanmadim, asar

<sup>76</sup> Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmua ul-bahrayn. – T., 2008

kamchiliklarini keyinroq qisman tuzatdim” deb yozgan bo’lsa-da, bu asar bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan asardir.

Bu davrning Bartold o’rganmagan tomonlarini boshqa tadqiqotchilar o’rganishdi. Jumladan, ko’p vaqtlar Samarqand rasadxonasi tarixini tadqiq etgan V.P.Keglov Yevropa manbalariga asoslanib, “Ulug’bek jahon faniga ulkan hissa qo’shgan olim” mavzusida ilmiy asar yozadi. Keyingi yili M.E.Massonning “Ulug’bek rasadxonasi” risolasi nashr etildi, unda muallif O’rta Sharq fazoshunoslik fani taraqqiyoti haqida qiziqarli hikoya qiladi. Ulug’bek va uning maktabi ilmiy merosini o’rganishda Ulug’bek boshliq samarqandlik olimlarning ilmiy dasturi haqidagi taxmini birinchi bo’lib ilgari surgan G. Jalolovning xizmati ham katta.



## II.2. Asarda nomlari zikr etilgan elchilar tavsifi

Agar Temuriylar davridagi qo’shni mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalarga to’xtalinsa, Shohrux Mirzo ham, uning o’g’li Ulug’bek ham bu boradagi Amir Temurning siyosatini davom ettirgan deb bimalol ayta olishimiz mumkin. Shohrux Mirzo tomonidan mamlakatdagi o’zaro ichki nizolarga nisbatan barham berishi natijasida temuriylar davlati bilan qo’shni mamlakatlar orasida iqtisodiy (savdo- sotiq) munosabatlar, madaniy va siyosiy aloqalar avj oldi. Faqat “Matlai sadayn” dagi ma’lumlar bilan cheklanib, xulosa chiqarganimizda ham, aytish mumkiniki, XV asrning birinchi yarmida O’rta Osiyo bilan Rum (Kichik Osiyo), Mistr, Hindiston hamda Xitoy mamlakatlari orasida 34as an34hun aloqalar yo’lga qo’yilgan edi<sup>77</sup>.

Amir Temur davrida keng yo’lga qo’yilgan Hindiston bilan elchilik munosabatlari temuriylar davrida ham yuksak darajada davom ettirildi. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, birinchi hind elchilari temuriylardan bo’lgan Shohrux saroyiga, Hirotda Temur vafotidan keyin hijriy 814 (1411) -yilda kelishgan. Aynan mana shu 1411-yilda ikkala davlat o’rtasida o’zaro do’stona munosabatlar kuchaya boshladi. Shohrux

Hadisda turganda Hirotda hind elchilari Qozi Mo’lton ismli elchi boshchiligida kelganiga unga Xurosondan habar qilishgan edi.

Shohrux hind elchilarini katta izzat — ehtirom bilan qabul qilib oldi. Tarixchi Hofiz Abro’ bu haqda shunday ma’lumot beradi: “814-yili Hizirxon elchilari yetib kelistidi va ko’p sovg’alar keltirishdi. Hizirxonning obro’li kishilaridan Qozi Mo’lton bosh elchi sifatida xat bilan Shohrux saroyiga yuborildi”<sup>78</sup>.

“Matlai sadayn” da ko’rsatilishicha, Hirotda Shohrux saroyiga kelgan elchi Qozi Mo’lton shunday degan: “Hindiston tomonida hind podshosi nomiga hutba o’qilgan va hindlar bu podshoga bo’ysunadi va uning buyruqlarini bajaradi”<sup>79</sup>. Uzoq marosimdan keyin Shohrux elchilarga to’n kiydirgan va har xil tuhafalar berib, Hindistonga qaytib ketishiga izn bergan. Abdurazzoqning yozishicha “Shohrux ular bilan o’z elchisini ham qo’shib yuborgan”.

Bir necha oydan keyin Hirotda yana Hizirxonning elchilari keladi. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozadi: “Muharram oyida Shohrux saroyiga katta sovg’alar bilan Dehliidan elchilar keldi. Shohrux elchilarni izzat hurmat bilan qabul qiladi, ularning o’z yurtiga qaytib ketishiga izn berdi, va ular bilan o’z elchilarini ham qo’shib yubordi”. Lekin ming afsus “Matlai sadayn” da bu elchilarning shaxsi to’g’risida, ular bilan qo’shib Hindistonga jo’natilgan elchilar haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi.

Asarda, keyinroq, O’rta Osiyoning elchilari Hindistondan qaytib kelganda (Hindistonga qachon borganliklari noma’lum) Hizirxon ular bilan hijriy 819 yilda (1416) Shohruxga qimmatbaho sovg’alar 35as an bilan o’z elchilarini yuborganligi haqida ma’lumotlar uchraydi<sup>80</sup>.

Abdurazzoqning bergan ma’lumotlariga qaraganda Shohrux Mirzo Ozarbayjonga yurish qilishdan oldin uning saroyiga, Hirotda Hizirxon elchisi Mavlon Mirxo’ja Shohrux nomiga katta sovg’a 35as an keltiradi. Xatda hind xalqining O’rta Osiyo xalqlariga nisbatan muhabbati va bu xalqlar o’rtasida do’stlik hamda osoyishtalikni bundan keyin ham mustahkamlash to’g’risida gapirilgan edi. Tarixchi Hofiz Abro’ning so’zlariga qaraganda, Mavlon Mirxo’ja juda serharakat kishi va adabiy tilda gapiradigan notiq bo’lib, bundan diplomatik muzokaralarda ustalik bilan foydalanar edi<sup>81</sup>.

<sup>78</sup> Hofiz Abro’ “Zubdat ut-tavorix”, T., 1963.

<sup>79</sup> “Matlai sadayn”, 1969, 156-157- betlar.

<sup>80</sup> “Matlai sadayn”, 1969, 234-235 betlar.

<sup>81</sup> Hofiz Abro’ “Zubdat ut-tavorix”, 1963.

Elchilar Shohrux saroyida uzoq vaqt bo'lib turgandan keyin, ularga vataniга qaytib ketishlariga ruxsat berilgan edi. "Matlai sadayn" da mana shu vaqtdan boshlab to 1442 yilgacha bo'lgan voqealar bayonida O'rta Osiyo bilan Hindiston o'rtasidagi 36as an36hun munosabatlar haqida hech narsa deyilmaydi.

1442 yil Shohrux Hindistonga katta bir guruhdan iborat o'z elchilarini yuboradi. Uning buyrug'ini bilan temuriylar saltanatining yirik viloyat hokimlari ana shu elchilar tarkibiga o'z vakillarini qo'shadilar. "Matlai sadayn" da ta'kidlanishicha, ushbu elchilar tarkibiga Xo'ja Maqsud, Xo'ja Muhammad va Abdurazzoq Samarqandiyning o'zi elchilik vazifasini bajargan. Uning yozishicha, elchilar guruhi tarkibida yana 20 kishi bo'lgan<sup>82</sup>.

Asarda ta'kidlanishicha, ushbu elchilar guruhi Eronning Ormuz shahrida yig'ilishib, hijriy 845-yilda (1442) Hindistonga tomon yo'l olishadi. Elchilar Janubi-Sharqiy Eron yerlari, Arabiston yarim oroli orqali quruqlik va dengiz yo'li bilan yurib, 1442-yil 17-oktabrida Kalikutaga yetadi. Elchilar bu shaharda besh oy turib, so'ng Vajayanagara o'tishgan. Bu yerga elchilar zilxiija (yanvar) oyining oxirida yetib keladilar. Bu yerning hukmdori elchilar kelganidan xabar olgach o'z amirlari va amaldarlari bilan birga elchilarni kutib olish uchun shahardan tashqariga chiqadi<sup>83</sup>. Abdurazzoqning so'zlariga ko'ra, uni podsho huzuriga kuzatib borgani, shoh esa ularni katta hurmat va izzat bilan qabul qilib, o'z yonidan joy ko'rsatgan. Shoh elchini qabul qila turib: "Men Shohruxdan kelgan O'rta Osiyo elchisini qabul qilishdan shod xurraman" degan<sup>84</sup>.

Shoh Abdurazzoqni o'z huzuriga chaqirib, undan: Shohruxning o'zlari ham bizga keladilarmi deb so'ragan. Abdurazzoq unga: o'zlari kelolmaydilar-u lekin sizga qizg'in va do'stona salom aytishni so'radi deydi<sup>85</sup>.

Vijayanagar shohi elchilarga o'z vatanlariga qaytishiga ijozat bergandan keyin, elchilar Vijayanagar poytaxtidan chiqib ketadi. Shabbon (avgust) oyining 12-kunida Hind shahri Bergamdan Umnan tomon yo'l olib, 18 kundan keyin ramazon (oktabr) oyining boshlarida, Umnan daryosi qirg'og'idagi Bakunud portiga yetib keldilar. Ular bu portda bir necha kun bo'lgach, dengiz bo'ylab yo'l oldilar va Sur portiga yetib keldilar. U yerdan 25-zulq'ada (dekabr) oyida suzishni boshlab, 40 kundan keyin, zullhija (yanvar) oyining oxirida elchilar Kulxata tog'lariga borib

<sup>82</sup> Matlai sadayn. Lohur. 1949.

<sup>83</sup> Matlai sadayn. Lohur. 1949.

<sup>84</sup> Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safaromasi. Mas'ul muharrir S. Azimjonova. T. 1960. - 18-bet.

<sup>85</sup> O'sha joyda. - 19-bet.

yetadi. Hijriy 848 (1445) -yil muharram oyining 1-2 kunlarida elchilar dengiz qirg'og'iga tushadilar<sup>86</sup>. Afsuski, asarda elchilarning Hirotdan jo'nagan vaqti aniq ko'rsatilmagan, elchilarning Vijayanagardan qachon chiqqani haqida ham hech qanday ma'lumotlar berilmagan.

Elchilar Jaurlig'ida o'zgina vaqt to'xtaganlaridan keyin, safar (mart) oyining 12-kunida Ormuz shahriga yetib kelganlar. Shohrux elchilarni yetib kelganliklaridan xabar topgan o'z amirlari va yaqinlari bilan birga Hirotdan shahri chekkasiga chiqib elchilarni tantana bilan kutib olgan va shaharga boshlab borgan<sup>87</sup>.

Hindistonga qilingan safardan eson - omon qaytgan elchilarning Shohrux tomonidan yaxshi kutib olinganligi, ularning mukofotlaganligi o'sha vaqtdagi davlat arboblarning bu elchilarga qanday katta ahamiyat berganliklarini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida Xitoyning Min sulolasi bilan ham keng miqyosda 37as an37hun aloqalar olib borilgan. Bu haqda "Matlai sadayn" da ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Unda ko'rsatilishicha, Shohrux Mirzo saltanatiga, Hirotda birinchi bor Xitoy elchilari hijriy 811 (1409)-yil Amir Temurning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildirish maqsadida kelganlar<sup>88</sup>.

Hijriy 815-yili (1411-1412) Xitoy imperatori Doy Ming tarafdin Hirotda elchilar tashrif buyurishadi. Shohrux Mirzo elchilarni Hirotdagi Bo'g'l Zag'onda yaxshi izzat ikrom bilan kutib oladi. "Matlai sadayn" da keltirilgan Xitoy imperatori maktubining matnidan ma'lum bo'lishicha, Hirotda kelgan Xitoy elchilarining ismlari Du-Ji-Xun-Boy, Sun-Kun-Ji, boshliqlari Dong - Ching bo'lgan<sup>89</sup>. Shohrux Mirzo ham bu elchilar qaytayotganda ular bilan qo'shib o'z elchisi Shayx Muhammad Baxshiyini Xitoyga yuborgan<sup>90</sup>.

Hijriy 820-yili rabbi ul-avval oyida (18-aprel-17-may, 1417) Xitoy hukmdori Doy Ming o'zining Bi-Bochin, Tu-Bochin, Jot-Bochin va Tatq-Bochinlar rahbarligidagi elchilarini Hirotda jo'natadi. Hirotda yetib kelgan elchilarni Shohrux Mirzo katta tantana bilan kutib oldi. U elchilar Xitoyga qaytayotganida o'z elchisi Ardasher tovachini ularga qo'shib jo'natadi<sup>91</sup>.

Xitoy xoqonining taklifiga binoan hijriy 822(1419)-yili Shohrux Mirzo Shodixo'ja boshchiligidagi o'z elchilarini Xitoyga yuborgan. Ushbu elchilik safarida Boysung'ur Mirzoning topshirig'ini bilan Sulton Ahmad va G'iyosiddin Naqqosh ham ishtirok etadi. Boysung'ur Mirzo ushbu safar

<sup>86</sup> A. O'rinboev. Abdurazzoq Samarqandiy. T. 1965.

<sup>87</sup> M. Ermatov. O'rta Osiyo, Rossiya, Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalar tarixidan. T. 1959. - 19-20 betlar.

<sup>88</sup> Matlai sadayn. 1969. - 128 bet.

<sup>89</sup> O'sha asar. - 174 bet.

<sup>90</sup> O'sha asar. - 176-bet.

<sup>91</sup> Matlai sadayn. 1969. - 242-bet.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, "Matlai sadayn" da keltirilgan tarixiy ma'lumotlarning aksar qismini siyosiy voqealar tashkil etib, ijtimoiy munosabatlar, madaniy ko'rinishlar va ijtimoiy ahvolda o'zlar ko'pincha, u yoki bu hukumdorlarning faoliyati, davlat boshqarishdagi tadbirlarini ta'riflash bilan bog'liq holda bayon qilingan.

Bundan tashqari, Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida aytib o'tganidek, Shohrux va uning avlodlari tarixidan so'zlashni maqbul qo'ygani asarda XV asr birinchi choragidagi O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida sodir bo'lgan umumiy siyosiy ahvolding yoritilishi tarziga ham ta'sir ko'rsatgan. Aksar hollarda, hayotini Shohrux va uning avlodi atrofida – temuriylar davlati markazida o'tkazgan Abdurazzoq Samarqandiy, shu markaziy davlat manfaatlarini ilgari surgan. Uning uchun temuriylar davlatining Temur barpo etgan miqyosda butunligi siyosiy voqealar orasida birinchi o'rinni egallagan.

Biroq, shunday bo'lsada, Abdurazzoq Samarqandiyning o'z davri siyosiy ahvolla mualliflarning fikrlarini taqqoslab, obyektiv xulosa chiqarish, hozirgi zamon tarix fani uchun alohida qimmatga ega. Shu bilan birga, e'tirof etish kerakki, "Matlai sadayn", aksar hollarda, boshqa manbalardan ko'ra ba'zi ustunliklarga egadir. Negaki, uni yozgan Abdurazzoq Samarqandiy asarda tilga olingan voqealarning deyarli barchasini zamondoshi va o'z mavqeyiga binoan shohidi ham bo'lgan hamda uning Shohrux nomidan so'zlab, ba'zi shahzodalarga qarata aytilgan nuqihatormuz eslatmalarini ham ko'rishimiz mumkun.

O'rni kelganda, shuni aytib o'tishimiz mumkinki, "Matlai sadayn" da 1304-1470 yillar orasida jami 166 yil mobaynida sodir bo'lgan voqealar bayon qilingan. Abdurazzoq Samarqandiy esa 1413 yili tug'ulib, 1482 yili vafot etgan. Demak, u o'zi yashagan davrdan oldingi yillarda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni yoritishda boshqa manbalarga asoslangan. Abdurazzoq Samarqandiy haqida zamondoshlari keltirib o'tgan ma'lumotlarga, shuningdek, "Matlai sadayn"dagi ma'lumotlarga tayanib shuni aytishimiz mumkinki, bu manbalardan eng asosiysi XV asr I choragining mashhur tarixnavis va geograf olimi Hofiz Abro'ning "Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy" nomli asari bo'lgan.

Umuman olganda, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn va majma ul-bahrayn" asari unda jamlangan tarixiy ma'lumotlarning nodirliigi va ishonchiligi bilan temuriylar davrida va undan keyin bitilgan asarlarga nisbatan o'zga xos ravishda muhim hamda qimmatlidir.

chog'ida G'iyosiddin Naqqoshga Hirotdan chiqqan kunidan boshlab to qaytib kelguniga qadar barcha ko'rgan – kechirganlarini kunma – kun yozib borishini tayinlaydi. Ushbu elchilar hijriy 823-yili zulhijjaning yettinchisida (13-dekabr, 1420) Xitoy poytaxti Xonbaliqqa (Pekin) yetib borishadi. Shohrux elchilari Xitoy imperatori tomonida katta tantana bilan kutib olinadi. Imperator elchilardan 7 nafarini: Shodixo'ja, Ko'keha, Sulton Ahmad, G'iyosiddin, Arg'udoq, Urduvon va Tojuddinlarni o'z huzuriga chorlab Shohruxning ahvolini so'rab surishtiradi. Hijriy 825-yili 1-ramazonda (29-avgust 1422-yil) elchilar Hirotda qaytib keladilar va barcha elchilik safari tafsilotlarini Shohruxga so'zlab beradilar<sup>92</sup>.

Bundan tashqari, Shohrux Mirzo Misr bilan ham 38-as an 38-hun aloqalar olib borgan. "Matlai sadayn" da keltirilishicha, Shohrux Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safaridan qaytgandan biroz vaqt o'tgach Misr sultoni huzuriga elchilikka tayinlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux nomidan yozilgan maktub va sovg'alarni tayyorlashga kirishadi. Ammo, Shohrux hijriy 850-yil zulhijjada (fevral-mart, 1447-yil) Rayda ekanligida vafot etadi. Xuddi, Temur vafotidan keyin kuzatilganidek, Shohrux o'lganidan keyin ham temuriy shahzodalar orasida 38-as an 38-hun kurash avj oldi va natijada, Misrga yuborilmoqchi bo'lgan elchi ketmay qoldi<sup>93</sup>.

<sup>92</sup> O'sha asar. – 305-324 betlar.

<sup>93</sup> O'sha asar. – 371-bet.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

### I. Manbalar.

- I.1. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sadayn va majma ul – bahrayn. – T.: Fan, 1969, - 463 b
- I.2. Alisher Navoiy. Majolis un – nafois. – T. 1960.
- I.3. Ibn Arabshoh. Ajoyib al – maqdur fi tarixi Taymur. – T.:Mehnat.1992. – 328 b.
- I.4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – T.: O'zbekiston,1996 – 526 b.
- I.5. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. To'rt ulus tarixi. – T.:Cho'lpon.1994. – 352 b
- I.6. Xondamir. Habib us-siyar. – T. 1941
- I.7. Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: Sharq, 1997. – 384 b.
- I.8. Hofiz Abro'. Zubdat ut- tavorix. – T. 1963.

### II. Adabiyotlar.

- II.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasiga bergan intervyusi. 2021-yil 16-avgust.
- II.2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- II.3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- II.4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
- II.5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T.: «O'zbekiston» 2016.
- II.6. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.: O'zbekiston. 2008. II.7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida: tarix, ma'rifat ma'naviyat. – T.: O'zbekiston.1998. – 480 b.
- II.8. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq. 1998. – 31 b.
- II.9. Azimov E. Amir temur saltanati. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot 4las an'at nashriyoti. 1996. – 88 b.
- II.10. Alimov R. O'rta Osiyo chet el sharqi bilan aloqalari: XIII-XV asrlar. –T.: O'zbekiston. 1982. – 24 b.
- II.11. Ahmad Ashraf. Ulug'bek: hayoti va faoliyati. – T.: Fan. 1991. – 64 b.
- II.12. Ahmad Ashraf. Ulug'bek Muhammad Tarag'ay. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994. – 40 b.

“Matlai sadayn” da nomi zikr etilgan elchilar faoliyati ham, o'sha davrning boshqa manbalariga tayangan holda yoritib berildi. O'ylaymizki, mazkur risola orqali temuriylar davri manbalarini o'rganish taraqqiyotiga, ma'lum darajada bo'lsa ham hissa qo'shildi.

Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur asarini to'laqonli tadqiq qilib borish bilan temuriylar davlati haqida to'laqonli bo'lgan yangidan – yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Fikrimizcha, temuriylar davri manbalarini o'rganish va tadqiq qilish mezoni insoniyat taraqqiyotining umumshariy qadriyatlari va madaniy – ma'rifiy merosi asosida olib borilmog'i va har bir davr, har bir inson ma'naviyatini shu mezon asosida baholanmog'i lozim. Ana shu nuqtai nazardan olganda temuriylar yaratgan qadriyatlar, xususan, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Mirzo Ulug'beklarning yaratgan boy ma'naviyati buyuklikka, ayni paytda, manguqlikka daxldordir. Darhaqiqat, buyuk Temur va Temuriylarsiz tariximiz, o'tmishimiz – qorong'u, osmonimiz tund bo'lib qolishi, shubhasiz.

- II.13. Ahmedov B. Uvvatov U. Karimov G. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – T.: O'qituvchi. 1996. – 312 b.
- II.14. Ahmedov B. Amir Temur. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1994. – 136 b.
- II.15. Ahmedov B. Sohibqiron Temur: hayot va ijtimoiy – siyosiy faoliyati. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1996. – 136 b.
- II.16. Ahmedov B. Mirzo Ulug'bek. – T.: Yozuvchi. 1994. – 288 b.
- II.17. Ahmedov B. O'zbekistonning atog'li tarixshunos olimlari. – T.: Cho'lpon. 2003. – 110 b.
- II.18. Ahmedov N.A. Amir Temur va temuriylar davrida ijtimoiy, siyosiy hayot.-Samarqand. 1993. – 53 b.
- II.19. Bo'riyev O., O'rinboev A., Xayrullayev M. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1997. – 168 b.
- II.20. Bo'riyev O., O'rinboev A. G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safarnomasi. – T., 1991.
- II.21. Bo'riyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – T.: O'zbekiston. 1997. – 167 b.
- II.22. Boboyev H. Amir Temur va temuriylar saltanati.- T.: Kamalak.1996. – 199 b.
- II.23. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. T.: Yozuvchi, 1996. – 94 b.
- II.24. Inoyatov S. Sohibqiron va temuriylar nazari tushgan diyor. -T.: Sharq. 2002. – 32 b.
- II.25. Ismoil Aka. Buyuk Temur davlati. – T., 1996.
- II.26. Inrohimov N. Ibn Batuta va uning O'rtasiyoga sayohati. – T.: Sharq.1993. – 103 b.
- II.27. Mo'minov I. Amir Temurning O'rtasiyosi tarixida tutgan o'rni va roli: yozma manbalar ma'lumot asosida. – T.: Fan. 1993. – 56 b.
- II.28. Mo'minov I. Temuriylar davri O'rtasiyosi saltanatining paydo bo'lishi va taraqqiy etish tarixiy ildizlari haqida. –T. 1969. – 47 b.
- II.29. Oqiljon Odilxon. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – T., 1996. – 264 b.
- II.30. Saidqulov T. O'rtasiyosi xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. – T.: O'qituvchi. 1993. – 189 b.
- II.31. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. – T.: Yozuvchi. 1995. – 352 b.
- II.32. Fayziyev T. Mirzo Ulug'bek avlodlari. T.: O'qituvchi. 1994. – 39 b.
- II.33. O'rinboev A. Abdurazzoq Samarqandiy. – T.: Fan. 1995. – 46 b.

- II.34. O'rinboev A. Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston safarnomasi. – T., 1960.
- II.35. Qosimov F. Temuriylar davrida Buxoro. – Buxoro. Buxoro nashriyoti. 1996. – 91 b.
- II.36. G'oyibov N. Amir Temur davri ma'naviyati. – T.: G'. G'ulom nomli Adabiyot 43-as an'at nashriyoti. 2001. – 48 b.
- II.37. Ermatov M. O'rtasiyosi, Rossiya va Hindiston xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalar tarixidan. – T.: O'zdamnashr. 1959. – 64 b.

### III. Simpozium va konferensiya ishlari.

- III.1. "Amir Temur va temuriylar davrini tadqiq etishning zamonaviy muammolari" mavzusidagi konferensiya tezisi. – Samarqand, 1997. – 192 b.
- III.2. "Amir Temur shaxsining zamondoshlari tomonidan baholanishi va faoliyatining mustaqil O'zbekiston uchun ahamiyati": konferensiya haqida hisobot. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium materiallari. Samarqand, 1996, 27-28 sentabr.

### IV Gazeta va jurnallardagi maqolalar.

- IV.1. Ahmedov A. Ulug'bek davridagi Samarqand – dunyo fonining markazi. // O'zbekiston tarixi. 2007. № 2. – 35-39 b.
- IV.2. Nurmuhammedova Sh.Z. Temuriylar davri O'zbekiston me'morchilik tarixini o'rganishning ba'zi bir xususiyatlari. // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. - 2007. №2-3. – 101-107 b.
- IV.3. Fayziyev X. Shohrux Mirzo. // Moziydan sado. 2004. № 4. – 16-17 b.
- IV.4. Yusupova D. Temuriylar davri buyuk mutafakkirlari. // Ma'rifat. 2003. №28.

## ILOVALAR

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sadayn majma ul – bahrayn"  
1-iltova  
asarida

nomlari zikr ettilgan tarixiy shaxslar ro'yhati.  
(1405 – 1429 yillar orasida voqealar bayoni asosida).

### 2. Temuriy hukmdorlar va shaxzodalar.

- I.1. Abu Said Mirzo.
- I.2. Amir Temur.
- I.3. Mirzo Abdulatif ibn Mirzo Ulug'bek.
- I.4. Mirzo Abdulloh ibn Mirzo Ulug'bek.
- I.5. Mirzo Abdurahmon ibn Mirzo Ulug'bek.
- I.6. Mirzo Abu Bakir ibn Mirzo Ulug'bek.
- I.7. Mirzo Abu Bakir ibn Mirzo Jo'ki.
- I.8. Mirzo Amirak Ahmad ibn Mirzo Umarshayx.
- I.9. Mirzo Ai ibn Mirzo Rustam.
- I.10. Mirzo Aloudavla ibn Mirzo Boysung'ur.
- I.11. Mirzo Abulqosim Bobur ibn Mirzo Buysung'ur.
- I.12. Mirzo Boysung'ur ibn Mirzo Shohrux.
- I.13. Mirzo Boyqaro.
- I.14. Mirzo Buzanjir ibn Mirzo Pir Muhammad ibn Jahongir.
- I.15. Mirzo Jahongir ibn Temur.
- I.16. Mirzo Iyyal ibn Mirzo Mironshoh.
- I.17. Mirzo ilangir ibn Mirzo Abu Bakir.
- I.18. Mirzo Iskandar ibn Umarshayx.
- I.19. Mirzo Mironshoh ibn Temur.
- I.20. Mirzo Muzaffar ibn Mirzo Boyqaro.
- I.21. Mirzo Muhammad Jahongir ibn Mirzo Muhammad Sulton.
- I.22. Mirzo Muhammad Jo'giy ibn Mirzo Shohrux.
- I.23. Mirzo Muhammad Sulton ibn Mirzo Jahongir.
- I.24. Mirzo Muhammad Qosim ibn Mirzo Muhammad Jo'giy.
- I.25. Mirzo Pirmuhammad ibn Mirzo Jahongir.
- I.26. Mirzo Pirmuhammad ibn Mirzo Umarshayx.
- I.27. Mirzo Rustam ibn Mirzo Umarshayx.
- I.28. Mirzo Sanjar ibn Mirzo Pir Muhammad.
- I.29. Mirzo Sa'd Vaqqos.
- I.30. Mirzo Sulton Ma'sud ibn Mirzo Suyurg'atmish.

- I.31. Mirzo Husayn Boyqaro.
- I.32. Mirzo Suyurg'atmish ibn Mirzo Shohrux.
- I.33. Mirzo Ulug'bek ibn Mirzo Shohrux.
- I.34. Mirzo Umar ibn Mirzo Mironshoh.
- I.35. Mirzo Umarshayx ibn Temur.
- I.36. Mirzo Shohrux ibn Temur.
- I.37. Mirzo Qaydu ibn Mirzo Pir Muhammad.
- I.38. Mirzo Xalil Sulton.
- I.39. G'iyosiddin Mirzo Ibrohim Sulton Mirzo Shohrux.

### II. Viloyat noiblari.

- II.1. Amir Anko (Xorazm noibi).
- II.2. Amir Arstonxo ja tarxon (Sig'noq noibi).
- II.3. Amir Bobo Hoji. (Govrud noibi).
- II.4. Amir Jahonshoh ibn Qora Yusuf (Sultoniya noibi).
- II.5. Amir Jolik (Tilon noibi).
- II.6. Amir Ibrohim Sulton ibn amir Shoh Malik (Xorazm noibi).
- II.7. Amir Ivoniy (Gurjiston noibi).
- II.8. Amir Udtku Barlos (kermon noibi).
- II.9. Amir Iskandar Hindu Buqo (Samarqand noibi).
- II.10. Amir Isfandiyyor (Darband noibi).
- II.11. Amir Muhammad Malik (Kurdiston noibi).
- II.12. Amir Musako (Xorazm noibi).
- II.13. Amir Muhammad Kurd (Ahlot noibi).
- II.14. Amir Nasrulloh sahroyi (Sova noibi).
- II.15. Amir Rustam Tog'ay Buqo (Buxoro noibi).
- II.16. Amir Shamsuddin (Bidlis noibi).
- II.17. Amir Shayx Ibrohim (Darband noibi).
- II.18. Amir Shox Valiy (Savron noibi).
- II.19. Amir Yor Ahmad Qoramon (Tancha va Bardog' viloyatlari noibi).
- II.20. Amir Yusuf Jalil (Yazd noibi).
- II.21. Amir Qora Usmon (Diyorbakir noibi).
- II.22. Amir Haliulloh (Shirvon noibi).
- II.23. Jaloluddin Feruzshoh (Hirod noibi).
- II.24. Mavlud Garmseriy (qandahor noibi).
- II.25. Malik Muhammad ibn Sayfal (Qandahor noibi).
- II.26. Malik Solih (Moradin noibi).
- II.27. Nosiruddin Pir Umar. (Arzinjon noibi).
- II.28. Pirak podshoh (Mozandaron noibi).

- II.29. Roziuddin Said (Soriy viloyati noibi).  
 II.30. Sayid Abdurazzoq (Qavin noibi).  
 II.31. Sulton Boyazid ibn Sayfal Qandahoriy (Qandahor noibi).  
 II.32. Sulton Muhammad (Bog'dod noibi).  
 II.33. Xoja Ali ibn amir Uljoytu (Soli saroy noibi).  
 II.34. Sulton Mahmud (Xuttalon noibi).  
 II.35. Sulton Uvays (Bog'dod noibi).  
 II.36. Xoja Ma'sud (Sabavor noibi).  
 II.37. Xoja Nizomiddin (Uvbah viloyati noibi).  
 II.38. Xoja Sulton Ali (Sabavor noibi).  
 II.39. Shayx Ali Tog'iy (Qoshg'ar noibi).  
 II.40. Shayx Zaynuddin al - Xavofiy (seiston noibi).  
 II.41. Shayx Hasan (Arzinjon noibi).  
 II.42. Shoh Iskandar Nayoltegin (Faroh viloyati noibi).  
 II.43. Shoh Qutbiddin (Seiston noibi).

### III. Elchilar.

- III.1. Abon tovachi.  
 III.2. Au Saidmalik.  
 III.3. Abu - I - Lays.  
 III.4. Amir Ardasher tovachi.  
 III.5. Amir Shodixo'ja.  
 III.6. Amir Hamza Qatiq.  
 III.7. Amir Hasan.  
 III.8. Amir Hasanko.  
 III.9. Andquy yorg'uchi (Mug'iliston elchisi).  
 III.10. Arqadoq.  
 III.11. Baxshiy Malik.  
 III.12. Beg Buqo.  
 III.13. Bi - Bochin (Xitoy elchisi).  
 III.14. Buto Temur Atqo.  
 III.15. Dang - Ching (Xitoy elchisi).  
 III.16. Di - Ji - Xun - Bay (Xitoy elchisi).  
 III.17. Jahon Uch Qaro.  
 III.18. Jaloliddin Lutfulloh sadr.  
 III.19. Jank - Fu (Xitoy elchisi).  
 III.20. Jot Bochin (Xitoy elchisi).  
 III.21. Zaynuddin Abdulhomid.  
 III.22. Islom tovachi.

- III.23. Kafiy Islom.  
 III.24. Li Do (Xitoy elchisi).  
 III.25. Lodunyo tarxon  
 III.26. Mavlono Amirxo'ja.  
 III.27. Mavlono G'iyosuddin Sammoniy.  
 III.28. Mardonshoh.  
 III.29. Mingli Temur.  
 III.30. Muhammad Toyiyib.  
 III.31. Muhammad Qaramon.  
 III.32. Muhammad Hofiz.  
 III.33. Pi - Mochin (Xitoy elchisi).  
 III.34. Pahlavon Jamol.  
 III.35. Poyanda.  
 III.36. Ramazon o'zbek.  
 III.37. Sayid Ahmad Alp Qaro Satizu.  
 III.38. Satizu.  
 III.39. Siddiq.  
 III.40. Sulton Ahmad.  
 III.41. Sultonshoh.  
 III.42. Sulton Qushchi.  
 III.43. Taiq - Bochin (Xitoy elchisi).  
 III.44. Tu - Bochin (Xitoy elchisi).  
 III.45. Umar Tabdgoniy.  
 III.46. Xoja Makkiy.  
 III.47. Xon - Mochin (Xitoy elchisi).  
 III.48. Xoja G'iyosuddin Naqqosh.  
 III.49. Xoja Tojuddin.  
 III.50. Chubin Qavuchin.  
 III.51. Shayx Muhammad Baxshiy.  
 III.52. Shodixo'ja.  
 III.53. O'rdubon.  
 III.54. Xoji Musofir.

### IV. Harbiy qo'shin boshliqlari (amirilashkarlar).

- IV.1. Amir Abdurazzoq ibn Xudodod.  
 IV.2. Amir Abdusamat ibn Sayfuddin.  
 IV.3. Amir Abu Bakir Oqtemur.  
 IV.4. Amir Abuk Buzruk.

- IV.5. Amir Aliko Ko 'kaltosh.  
 IV.6. Amir Arg'unshoh.  
 IV.7. Amir Bayon.  
 IV.8. Amir Do'lday.  
 IV.9. Amir Yodgorshoh.  
 IV.10. Amir Jahonshoh.  
 IV.11. Amir Jafar Sohob.  
 IV.12. Amir Ilyosxo'ja.  
 IV.13. Amir Lufulloh Bobuytemur.  
 IV.14. Amir Ma'sum Jahongir.  
 IV.15. Amir Monuchehr.  
 IV.16. Amir Mumsuddin Uchqaro.  
 IV.17. Amir Mig'rob.  
 IV.18. Amir Nomadak.  
 IV.19. Amir Nashirvon.  
 IV.20. Amir Pir Ali Toz.  
 IV.21. Amir Sayfuiddin.  
 IV.22. Amir Sayfuiddinxo'ja.  
 IV.23. Amir Suloymonshoh.  
 IV.24. Amir Temur Malik.  
 IV.25. Amir Tog'ay Mergan.  
 IV.26. Amir Uvays ibn amir Oqbuqa.  
 IV.27. Amir Farmonshoh.  
 IV.28. Amir Xoja Rasiy.  
 IV.29. Amir Xoja Berdi.  
 IV.30. Amir Xoja Ali Nasrulloh Turjiziy.  
 IV.31. Amir Xudoydod Husayniy.  
 IV.32. Amir Xariy Malik.  
 IV.33. Amir Cherkas ibn amir Tulon.  
 IV.34. Amir Shayx nuriddin.  
 IV.35. Amir Shayx Luqmon Barlos.  
 IV.36. Amir Shamsuddin.  
 IV.37. Amir Shayx Ibrohim.  
 IV.38. Amir Shayx Sulton.  
 IV.39. Amir Shayx Husrav Shohiy.  
 IV.40. Amir Chaqmoq.  
 IV.41. Amir Sher Ali.  
 IV.42. Amir Shoh Malik.  
 IV.43. Amir Yusufxo'ja.

- IV.44. Amir Hasan So'fi Tarxon.  
 IV.45. Amir Qonashiriy.  
 IV.46. Sulton Sanjar ibn Sayfuiddin.

#### V. Qo'shni davlat hukmdorlari.


- V.1. Alqida (Turkiston hukmdori).  
 V.2. Amir Qora Yusuf (Ozarboyjon hukmdori).  
 V.3. Amir Hasan Ajlon (Makkai muazzama valiyisi).  
 V.4. Baroq o'g'lon (Mug'uliston hukmdori).  
 V.6. Day – Ming xon (Xitoy imperatori).  
 V.7. Muhammadxon (Mug'uliston hukmdori).  
 V.8. Naqsh Jahon ibn Sha'mi Jahon (Mug'uliston hukmdori).  
 V.9. Nekpayshoh (Badaxshon hukmdori).  
 V.10. Sulton Ahmad (Iroq hukmdori).  
 V.11. Sulton Baxrom (Nimruz sultoni).  
 V.12. Sulton Shayxiy (Misr sultoni).  
 V.13. Toy – Zuy (Xitoy imperatori).  
 V.14. Temurxon (Dahli Qipehoq hukmdori).  
 V.15. Fulodxon (Dahli Qipehoq hukmdori).  
 V.16. Xizraxojaxon (Mug'uliston hukmdori).  
 V.17. Sha'mi Jahon podshoh (Mug'uliston hukmdori).  
 V.18. Shoh Hizirxon (Dehli sultoni).  
 V.19. Sher Bahrom (Jeta ulusi hukmdori).  
 V.20. Shoh Arg'unshoh (Badaxshon hukmdori).

#### VI. Mashxur Shayxlar.

- VI.1. Abu Is'hoq Ibrohim.  
 VI.2. Imom Muhammad Shayboniy.  
 VI.3. Xoja Alouddin Ali Chishtiy.  
 VI.4. Xoja Muhammad ibn Ismoil al – Buxoriy.  
 VI.5. Xoja Tojuddin Hasan Attor.  
 VI.6. Shayx Abu Said ibn Abu – l – Xayr.  
 VI.7. Shayx Abu Mansur Motrudiy.  
 VI.8. Shayx Abu – l – Hasan Haraqoniy.  
 VI.9. Shayx Abu Yazd.  
 VI.10. Shayx Abu ali ibn Rizo.  
 VI.11. Shayx Ahmadi Jom.  
 VI.12. Shayx Ibrohim Xavvos.  
 VI.13. Shayx Muhiddin Muh – d al G'azzoliy at – Tusiy.


“Matlali sadayn va majma ul – bahrayn” asari muqovasi. Toshkent.  
“O‘zbekiston” 2008.

- VI.14. Shayx Sa‘duddin al – Hummuliyy.  
VI.15. Shayx Rukniddin Alouddavla Simmoniy.  
VI.16. Shayx Safnuddin.  
VI.17. Shayx Said Abdulazim.  
VI.18. Shayx Sayyid Shamsuddin Buliy.  
VI.19. Shayx Abdulloh Ansoriy.  
VI.20. Shayx Sharafiddin Ali Safaviy.
- VII. Mutafakkir olimlar**
- VII.1. Abdurazzoq ibn Is‘hoq as – Samarqandiy.  
VII.2. Xo‘ja Shamsiddin Muhammad ibn Xo‘ja Ali ibn Xo‘ja Nizom ad-Din Yahyo Simmoniy.  
VII.3. Jaloliddin Yusuf Uvbahiy  
VII.4. Jaloliddin Yusuf Xalloy  
VII.5. Mavlono Nizomiddin Abdurahim Yor Ahmad  
VII.6. Xo‘ja Nasiruddin Lutfulloh  
VII.7. Shayx Shahobuddin ibn Shayx Rukniddin ibn Shayxulislom Shayx Shahobuddin al-Bistomiy  
VII.8. Shayx ul-islom al-Jazariy  
VII.9. Shayx Ali Kalon  
VII.10. Saydi Ahmad Kabir  
VII.11. Shayx Abu Is‘hoq  
VII.12. Rukniddin Muhammad  
VII.13. Xo‘ja Soinuddin Ali Isfaxoniy  
VII.14. Shamsuddin Xojarmiyy  
VII.15. Qutbuddin Ahmad al-Imomiy  
VII.16. Qozi Azduddin  
VII.17. Xo‘ja Abul Vafo Xorazmiy  
VII.18. Shamsuddin al-Xeraviy  
VII.19. Ja‘far Tabriziy  
VII.20. Zahiruddin Azhar  
VII.21. Shahobuddin Abdulloh  
VII.22. Jaloluddin Shayx Mahmud  
VII.23. Xo‘ja Abdulqodir



4-ilova

Abobrox. Britaniya muzeyi qo'lyozmalaridan birida keltirilgan rasm  
(Edward G. Browne, "A Literary history of Persia", v. III,  
Cambridge, 1951, p, 382).



3-ilova

Sharafiddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma" asari qo'lyozmasining 16 va 2a  
sahifalari. 1626 yilda Samarqandda ko'chirilgan, Abu Rayhon  
Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universiteti fondida saqlanadi.  
Inv. raqami 4472.



Sharafiddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma" asari qo'lyozmasining  
16 va 2a sahifalari. 1626 yilda Samarqandda ko'chirilgan.  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik universiteti  
fondida saqlanadi. Inv. raqami 4472.

Nazirov Baxtiyor Safarovich, Bozorov Quvonchbek Dilmuurod o'g'li,  
Toshqobilov Umid Sharafiddinovich

## MUNDARIJA

|  |    |
|--|----|
| KIRISH.....  | 3  |
| I BOB. "MATLAI SA'DAYN VA MAJMUA UL BAHRAYN"<br>ASARINING TARIXIY MANBA SIFATIDAGI AHAMIYATI.....  | 7  |
| I.1 Asar muallifining shaxsi va ilmiy faoliyati.....   | 7  |
| I.2. Asarning yaratilishi tarixi va voqealar bayoni.....   | 10 |
| II BOB. "MATLAI SADAYN VA MAJMA UL BAHRAYN" ASARI TARIXIY<br>SHAXSLARNING HAYOTINI YORITIB BERUVCHI ASOSIY<br>MANBALARDAN BIRI SIFATIDA..... | 14 |
| II.1. Shohrux va uning o'g'li Mirzo Ulug'bek ma'rifatparvar shaxs va adolatli<br>hukmdorlar timsolida.....                                   | 14 |
| II.2. Asarda nomlari zikr etilgan elchilar tavsifi.....  | 34 |
| XULOSA.....  | 39 |
| FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....  | 41 |
| ILOVALAR.....  | 44 |

## ABURAZZOQ SAMARQANDIYNING "MATLAI SADAYN VA MAJMA UL BAHRAYN" ASARIDA TARIXIY SHAXSLAR TALQINI

(risola)

Muharrir N.Pulatova  
Tex. muharrir M.Talipova  
Sahifalovchi N.Raimova

Bosishga ruxsat etildi 27.07.2022.

Qog'oz bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. TIMES garniturası

Shartli bosma tabog'i 3,5. Nashr tabog'i 3,2

Adadi 100. Buyurtma № 15-12.

«LESSON PRESS» MCHJ nashriyoti

Toshkent, Komolon ko'chasi, Erkin tor ko'chasi, 13

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko'chasi, 6-uy.



9 789943 854499